



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SPORT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI  
NUKUS FILIALI**

*“Dene t rbiyasi h m sport tarawında  zliksiz k siplik bilimlendiriw  
sistemasınıh zamanag y halatı h m rawajlandırıw jolları”* atamasındađı

**XAL QARAL Q K LEMDEGI ILIMIY- MELIY  
KONFERENCIYA TOPLAMI**

**10-11-may 2024 jil**

*“Jismoniy tarbiya va sport sohasida uzluksiz kasbiy ta‘lim tizimining  
zamonaviy holati va rivojlantirish yo‘llari”* mavzusida

**XALQARO MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN TO‘PLAMI**

**10-11-may 2024-yil**

*International Scientific-practical Conference on the theme “Modern  
State and Development Approaches of Continuing Vocational Education  
System in the Field of Physical Education and Sports”*

**May 10-11, 2024**

**I-QISM**

**NUKUS-2024**

**UOK 796.011: 001.891(042.3):005.745**

**KBK 75**

**D 39**

**“Jismoniy tarbiya va sport sohasida uzluksiz kasbiy ta’lim tizimining zamonaviy holati va rivojlantirish yo‘llari”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami-  
N.JTSBMQTMOI Nukus filiali., 2024. 312 b.

p.f.b.f.d. (PhD), professor I.A. Tursunaliyevning umumiy tahriri ostida

**Tahrir hay’ati a’zolari:**

p.f.b.f.d. (PhD), dots. Z.P.Rasulov,  
p.f.n., O.U.Utenov,  
t.f.n., dots. N.A.Tleubergenova,  
p.f.b.f.d. (PhD) A.A.Xojametov,  
b.f.b.f.d. (PhD) G.K.Ilyasova,  
t.f.n. dots. B.J.Mambetov,  
p.f.b.f.d. (PhD), dots. S.M.Toylibaev,  
P.A.Bazarbaev,  
M.T.Atashov,  
N.M.Orazbaeva,  
M.A.Axmedova,  
I.Q.Bisenbaev,  
A.K.Saburov,  
D.M.Bekmuratov,

**Taqrizchilar:**

professor P.Xodjaev  
professor A.T.Niyazov

Mazkur ilmiy ma’ruza va tezislar to‘plamida O‘zbekiston Respublikasi va boshqa xorijiy davlatlarning qayta tayyorlash va malaka oshirish institutlarining professor-o‘qituvchilari va tadqiqotchilari, jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarini tayyorlaydigan universitetlarining professor-o‘qituvchilari va doktorantlari, ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqaruv organlarining amaliyotchilari, sport sotsiologiyasi, psixologiyasi, falsafa, huquq, tibbiyot, adaptiv jismoniy tarbiyasi mutaxassislari, amaliyot murabbiylari, sport-ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, maktabgacha va maktab ta’lim tashkilotlarining sport pedagoglari ilmiy tadqiqot ishi natijalari kiritilgan.

*Ushbu nashrda keltirilgan barcha ma’lumotlar va fikr-mulohazalar mualliflarga tegishli bo‘lib, tahrir hay’ati a’zolarining fikriga mos kelmasligi mumkin. Nashrda keltirilgan raqamlar, statistik ma’lumotlar, fikr-mulohazalar uchun mualliflar mas’ul hisoblanadi.*

JTSBMQTMOI Nukus filiali

**O‘zbekiston Respublikasi  
Sport vaziri  
Adham Ilhamovich Ikramovning**

**TABRIK SO‘ZI**



**Hurmatli do‘stlar, qadrli hamkasblar va aziz mehmonlar!**

Sizlarni O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi va shaxsan o‘z nomimdan Qoraqalpog‘iston Respublikasining poytaxti Nukus shahrida Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filialida **“Jismoniy tarbiya va sport sohasida uzluksiz kasbiy ta’lim tizimining zamonaviy holati va rivojlantirish yo‘llari”** mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumaning ochilish marosimi bilan chin qalbidan tabriklayman!

Bugun, Sizlar bilan quvonchli voqeaning guvohi bo‘lib turibmiz. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti **Nukus filialida** mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjuman **ilk marotaba** tashkil etilmoqda.

Ushbu anjuman mamlakatimizda va xalqaro sport olamida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bilan bog‘liq keng ko‘lamli masalalar yuzasidan olimlar, mutaxassislarning muhokamasi va fikr almashishi uchun muxim o‘rin tutadi.

Shu bilan birgalikda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, jismoniy tarbiya va sport sohasida mamlakatimiz yutuqlarini xalqaro darajada keng yoritish, xorijiy sport ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilishni yanada kengaytirishga imkoniyat yaratadi.

Anjumaning asosiy maqsadi jismoniy tarbiya va sport sohasida ilg‘or tajriba va bilim almashish, deb bilaman.

Umid qilamanki, ushbu anjumanda erishilgan natijalar, birinchi navbatda, mamlakatda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishga, shuningdek pedagogik va ilmiy salohiyatni yanada oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini tubdan yaxshilashga, ilg‘or xorijiy sport-ta’lim texnologiyalarini joriy qilish orqali yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Mazkur anjumaning shunisi e‘tiborga loyiqki, umuman jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun juda zarur bo‘lgan uzluksiz kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha sohadagi mutaxassislar tayyorlaydigan ta’lim muassasalari ilmiy pedagog kadrlari ishtirokida amalga oshirilmoqda.

Anjuman ishtirokchilarining kasblararo muloqoti sport ilm-fanini yanada boyitadi va ularning qo'llanilishini batafsil ta'minlaydi hamda jismoniy tarbiya va sport sohasida uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini amaliy yo'naltirishga yordam beradi.

Ishonchim komilki, mazkur anjuman jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarining o'zaro aloqalarini kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini tartibga solishning dolzarb muammolarini aniqlash, jismoniy tarbiya-sport ta'limi mazmunini chuqurlashtirish, jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarining kasbiy malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Institut va uning filiallarining ta'lim faoliyati sport ilm-fanining an'analari va ilmiy innovatsiyalar ittifoqiga asoslangan bo'lib, bugungi o'tkazilayotgan Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman unda haqli ravishda o'rin oladi.

**Aziz do'stlar va hurmatli hamkasblar, tashkilotchilar hamda xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilari!**

Anjuman ishtirokchilarining ma'ruzalari albatta, jismoniy tarbiya va sport kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir masalalarni qayta ko'rib chiqish va rivojlantirishga, ommaviy sport va sport zahiralarni tayyorlash hamda oliy sport yutuqlari bo'yicha o'qitish usullari va shakllari jismoniy tarbiya va sportning ilmiy nazariyasini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ishonchim komilki, "Jismoniy tarbiya va sport sohasida uzluksiz kasbiy ta'lim tizimining zamonaviy holati va rivojlantirish yo'llari" mavzusiga bag'ishlangan anjuman, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning yangi shakl va usullarini ochiq muhokama qilish uchun samarali maydonga aylanadi.

Mamlakatimizdagi mahalliy va xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalar asosida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimidagi dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi, ya'ni mazkur anjuman materiallari jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislari uchun foydali bo'ladi.

Menimcha, bu sport ilm-fanining rivojlanishidagi muhim qadam, mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan yosh va tajribali olimlar o'rtasida o'zaro fikr almashish, ilm-fan va amaliyot o'rtasidagi aloqani mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonaman.

Anjuman O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va uning Nukus filiali hayotidagi muhim voqea bo'lib, u, shubhasiz, sport ilm-fanida ilmiy izlanishlar jarayonini takomillashtirishga, kelgusidagi yanada samarali ish olib borish uchun keng zamin yaratadi.

Barcha anjuman ishtirokchilari va tashkilotchilariga samarali hamkorlik, konstruktiv muloqot va jismoniy tarbiya va sport manfaati uchun mustahkam ilmiy aloqalar va yangi ijodiy yutuqlar tilayman!

Sizlarga sihat-salomatlik, oilaviy baxt va farovonlik, ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyatlaringizda muvaffaqiyatlar tilayman!

**Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti rektori, professor Ilhomjon Axmedovich Tursunalievning**

**KIRISH SO'ZI**



**Hurmatli hamkasblar, qadrli do'stlar!**

Sizlarni Nukus shahrida Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Nukus filialida kutib olishdan xursandmiz!

Institut negizida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish, shuningdek, sport ilm-fanning turli yo'nalishlari bo'yicha katta hajmda ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tashabbusi va qo'llab-quvvatlashi natijasida, bugun Sizlarning ishtirokingizda institutning Nukus filialida **“Jismoniy tarbiya va sport sohasida uzluksiz kasbiy ta'lim tizimining zamonaviy holati va rivojlantirish yo'llari”** mavzusida **xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman**, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-iyundagi PQ-200-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida”gi 16-son bo'yrug'ining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “2024-yilda Respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi”ga muvofiq, institutning Nukus filiali faoliyati tarixida birinchi marotaba tashkil etilmoqda va o'tkazilmoqda.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari, Biz Sizlarning ushbu anjumanda ishtirokingiz orqali sizlar bilan hamkorlik qilishdan, ilmiy qiziqishlarimizni rivojlantirishdan, O'zbekistonda va boshqa xorijiy davlatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasida uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha ilmiy munozaralar tajribasini baham ko'rishdan va qo'llab-quvvatlashdan mamnunmiz.

Shuningdek, u jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro ta'sir yo'nalishlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ishonchim komilki, mazku anjuman ishbilarmonlik aloqalarini kengaytirishga, ilmiy tadqiqotlarni faollashtirishga, davlatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasida uzluksiz kasbiy ta'lim tizimining dolzarb masalalarini aniqlashga, jismoniy tarbiya va sport ta'limi mazmunini chuqurlashtirishga, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini oshirishga yordam beradi.

So'nggi yillarda institut o'zining ilmiy va ta'lim salohiyatini oshirib bormaqdi va haqli ravishda O'zbekistondagi jismoniy tarbiya va sport sohasida qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida yagona institutdir.

Institutning ilmiy salohiyatini ta'kidlab o'tadigan bo'lsak:

2021 yilda institutda ilmiy salohiyati 40% bo'lsa, 2022-yilda 50% ni tashkil etib, ilmiy salohiyat 10% ga oshdi. 2023-yilda esa, institut ilmiy salohiyatini 60% bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 70 % ga oshirish rejalashtirilmoqda.

Shu bilan birgalikda institut va uning Nukus, Samarqand va Farg'ona filiallari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlar borasida salmoqli yutuqlarga erishildi.

2023-yilda jami 328 ta maqolalar nashr etildi. Shundan, OAK e'tirof etgan xalqaro jurnallarida 73 ta, OAK e'tirof etgan respublika jurnallarida 102 ta, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda 111 ta, respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida esa, 121 ta ilmiy maqolalar chop etilgan.

Ishonchim komilki, mazkur anjuman, mamlakatimizda va anjumanda ishtirok etayotgan xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasida qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Anjumanda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi muammolar va ularni hal etish yo'llari, ilg'or pedagogik tajriba va innovatsiyalarni umumlashtirish va ommalashtirish, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy va amaliy yutuqlar muhokama qilinadi.

Anjumanda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi ko'plab dolzarb masalalarga, xususan:

- jismoniy tarbiya va sport sohasida uzluksiz kasbiy ta'lim tizimining zamonaviy holati va rivojlantirish yo'llarining ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish va ilmiy, amaliy yutuqlarni targ'ib qilish.

- Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi olib borilayotgan islohotlar ahamiyati, jismoniy tarbiya va sport sohasida uzluksiz kasbiy ta'lim tizimining zamonaviy holatini o'rganish, jismoniy tarbiya va sport sohasida o'zaro tajriba almashish, xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur masalalarga ilmiy yondashuv, jismoniy tarbiya va sport sohasida ilg'or tajribalarni rivojlantirish, yangi usullarni ishlab chiqish imkonini beradi va jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarida o'z aksini topadi, deb hisoblaymiz.

Ishonchim komilki, Anjuman yakunlari keyingi amaliy faoliyatda o'zning samarali ifodasini topadi.

Anjuman tashkilotchilari va barcha ishtirokchilariga samarali ishlar, qiziqarli va mazmunli muhokamalar tilayman!

Sizlarga ilmiy, ijodiy, pedagogik, sport faoliyatida yangi marralarni zabt yetishda, ijodiy ilhom va g'oyalarni amalga oshirish, yeng yaxshi an'analarni saqlab qolish, kasbiy aloqalarni kengaytirish va xalqaro ta'lim va ilmiy makonga yanada integratsiyalashuvda muvafaqqiyatlar tilaymiz.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi**  
**Sport vaziri**  
**Adilbek Rustamovich Allanazarovning**  
**QUTLOV SO‘ZI**



**Hurmatli anjuman ishtirokchilari va hamkasblar!**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sport vazirligi nomidan ilk marotaba tashkil etilayotgan Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filialida **“Jismoniy tarbiya va sport sohasida uzluksiz kasbiy ta’lim tizimining zamonaviy holati va rivojlantirish yo‘llari”** mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman bilan anjuman ishtirokchilarini qutlashdan mamnunman!

2023/2024 o‘quv yilida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sport vazirligi tasarrufidagi **26 ta** sport ta’lim muassasalarida **74 ta** sport turlari bo‘yicha jami **1 543 nafar** trenerlar, **43 349 nafar** yoshlarga (*shundan 11 713 nafar qizlar*) sport sirlarini o‘rgatib kelmoqda.

Vazirlik tasarrufidagi sport maktablarini malakali kadrlar bilan ta’minlash maqsadida joriy yilning 4 oyi davomida Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida reja bo‘yicha 2 nafar sport maktabi direktori, 2 nafar direktor o‘rinbosari, 17 nafar instruktor-metodistlar hamda institutning Nukus filialida jami 172 nafar trenerlar-o‘qituvchilar malakasini oshirdilar.

Hozirgi kunda 2024-yil Parij shahri (Frantsiya)da bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarining har tomonlama tayyorligi va muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasidan 19 nafar sportchilarimiz olimpiya o‘yinlariga muhim reyting ochkolarinini beruvchi sport musobaqalarida munosib ishtirok etib kelmoqda.

Jumladan, Qilichbozlik bo‘yicha **Zaynab Dayibekova**, ayollar kurashi bo‘yicha **Aqtenge Keunimjaeva** va badiiy gimnastika bo‘yicha **Shaxzoda Ibragimovalar** Olimpiya o‘yinlariga litsenziyalarni qo‘lga kiritishdi.

2023 yil davomida sportchi yoshlarimiz jami **3 195 ta** medalni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, joriy yilning 4 oy davomida **866 ta** medalni qo‘lga kiritdi.

Aholining sport bilan shug‘illanishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish va ularning sog‘ligini mustahkamlash hamda yoshlarimizni ommaviy sportga qiziqtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-aprel kungi “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib

chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-201-sonli qaroriga asosan "Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqalari o'tkazilib kelinmoqda.

2022-yil yoshlarning **48,4 %**, 2023-yilda yoshlarning **69,8 %** qamrab olishga erishilgan bo'lsa, joriy yilda yoshlarning **72.3%** qamrab olish rejalashtirilgan.

2022-2023 yil o'tkazilgan "Besh tashabbus olimpiadasi" final musobaqalarida g'olib va sorindor bo'lgan yoshlarning mahallalariga **15.8 mlrd.so'mlik** jami **78 ta** sport maydonchalari qurilib foydalanishga topshirildi.

2023-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida sport muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash, bino va inshootlarini yangidan qurish va ta'mirlash, olis mahallalar hududlarida sport maydonchalarini qurish ishlari doirasida jami manbalar hisobidan **14 mlrd.so'm** qiymatdagi ishlar bajarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "2024-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-404-son qaroriga asosan 2024-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida sport infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida **5 ta** ob'ektda qiymati **75 mlrd.so'mlik** qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, 2025-yilda sport sohasidagi mavjud infratuzilmani rivojlantirish maqsadida **6 ta** ob'ektda **94,7 mlrd.so'mlik** qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish rejalashtirigan.

Umid qilamizki, ushbu anjuman doirasida konstruktiv muloqot uchun keng sharoit yaratish mumkin bo'ladi va yosh olimlar o'rtasida tajriba va fikr almashishlari uchun keng zamin yaratadi.

Furastdan foydalanib, barcha anjuman ishtirokchilari va tashkilotchilariga samarali ish, sihat-salomatlik, oilaviy baxt va farovonlik, ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyatlaringizda muvaffaqiyatlar tilayman!

**TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYONDALARINING QARASHLARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA BADANTARBIYA MASALALARI**

**Zarif Begimqulov** - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.v.b. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jadidchilik harakati, Turkiston jadidchilik harakati namoyondalari Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Abdurauf Fitratlarning yosh avlod orasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish hamda ijobiy fazilatlar va badan tarbiya orqali barkamol avlod qilib shakllantirishda oiladagi muhit, unda voyaga yetayotgan farzandlarning ezgu fazilatlarga ega bo'lib tarbiyalanishi, doimiy ravishda zararli odatlar va harakatsizlikdan himoyalaniishi, kishilarni sog'lom turmush tarziga amal qilishi, ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, zakovatlilik, jasurlik, jismoniy shijoatlilik, sihat-salomatlik, odob-axloq borasidagi qarashlari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik, ma'rifatparvarlik, badan tarbiya, milliy madaniyat, salomatlik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida yoshlarda yuksak ma'naviyatni rivojlantirish va yuksaltirish borasida buyuk ajdodlarimiz, xususan jadidlarning ta'lim tarbiya to'g'risidagi fikr-mulohazalarining muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi" [1].

Ma'lumki, jadidchilik deganda ko'z oldimizga XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllangan, jamiyatning eng ilg'or fikrli qatlamlari, ya'ni ona Vatanni mustaqil, ozod holda ko'rishni o'zlarining bosh maqsadlari deb hisoblagan yangilanish harakati namoyondalari keladi.

Turon zaminda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan yangilanish harakati-jadidchilik o'sha davrning eng ilg'or kuchlari hisoblanib, ular jamiyatni tubdan isloh etishni aynan ta'lim, xalqqa madaniy, mafkuraviy va siyosiy bilimlar berishning kechiktirib bo'lmaydigan, dolzarb vazifalarini hal qilishdan boshladilar [3]. Agar o'zbek jadidchiligi o'z tarixining birinchi bosqichida asosan ma'rifiy oqim sifatida namoyon bo'lib, bu davrda taraqqiyparvarlarning ta'lim islohoti bilan bog'liq qarashlari to'la shakllangan bo'lsa, keyingi davrda ularning ma'rifiy g'oyalari milliy taraqqiyotning boshqa muhim va dolzarb masalalari bilan yanada boyidi. Jadid namoyandalari pedagogik asarlarida ona Turkiston va unda yashovchi xalqlar tarixi va madaniyati, milliy urf-odatlar, sog'lom millatning vujudga kelishida oila, vatanparvarlik, insonparvarlik, odob-axloq, tarbiya turlari haqida kerakli ma'lumotlarni berishni o'zlarining burchlari deb bildilar.

**Tadqiqot usullari.** Maqolada mantiqiylik, funksional-tizimlilik, tahlil kabi metodlardan, shuningdek jadidchilik harakati namoyondalari tadqiqotlaridan foydalanilgan.

**Muhokama va natijalar.** Shuni alohida qayd etish lozimki, Turkiston jadidlarining qarashlarida sog'lom turmush tarzi masalasi ham alohida o'rin egallaydi. Tadqiqotimiz jarayonida jadid namoyondalari tomonidan qoldirilgan ulkan ma'naviy me'rosda sog'lom avlod, badantarbiya, barkamol avlodni shakllantirishga oid muhim qarashlar va tahlillarni ko'rishimiz mumkin. Turkiston jadidlari tarbiyani keng ma'noda tushunib, pedagogikaga doir o'zlarining asarlarida sog'lom inson qiyofasi to'g'risida jiddiy mulohaza yuritganlar. Ularning qarashlarida jamiyatning ilg'or bo'lagi sifatida yoshlar milliy qadriyatlarga hurmat nazari bilan qaraydigan, moddiy va ma'naviy boyliklarni doimo ko'z qorachig'iday asraydigan, oilaga chin muhabbatli, vafodor, insoniy burch va mas'uliyatini chuqur his etadigan, xalqi va yurti tashvishi bilan yashaydigan, vatan, millat taqdiri to'g'risida jon kuydiradigan, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy bilimlar jihatidan yetuk, vatanparvar, insonparvar, zakovatli, jasur, mag'rur, jismoniy shijoatli bo'lib shakllanish tarafdorlari bo'lganliklarini guvohi bo'lamiz.

**Abdulla Avloniy** (1878-1934) – 1878-yil Toshkentda kosib oilasida dunyoga kelgan. U XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi sifatida tanilgan.

Abdulla Avloniy XX asr boshida jadidchilik harakatiga qo'shilib, Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri sifatida tanildi. U maktab o'quvchilari uchun “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” (1912), “Tarix”, “Turkiy Guliston yoki axloq” (1913) kabi zamonasi uchun muhim hodisa bo'lgan darsliklarni yozgan. Alloma tomonidan yozilgan asarlar asosan tarbiyaning kechiktirib bo'lmaydigan, dolzarb masalalariga bag'ishlangan.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari orasida “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobi XX asr boshidagi fikrlar taraqqiyotini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir. Manbalarda qayd etilishicha, 1913 va 1917 yillarda Toshkentda Ilin bosmaxonasida litografik (toshbosma) usulida nashr etilgan mutafakkirning mazkur asari 2 qismdan iborat.

Pedagogika fanini yaxshi bilgan, bu sohada kuchli va keng ma'lumotga ega bo'lgan Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari muhim axloqiy va ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, ushbu asarni yaratishda adib xalq pedagogikasining ijobiy tajribalaridan maqsadli, unumli va o'z o'rnida foydalanadi. Mazkur asarda u insondagi ijobiy va salbiy fazilatlarining tavsifi, yoshlar tarbiyasining ahamiyati, bolani qanday qilib tarbiyalash va tarbiyani amalga oshirish yo'l-yo'riqlari, jamiyatda komil insonlarni shakllantirishning muhim jihatlarini bayon qilgan.

O'zining butun umrini maorif, ta'lim-tarbiya sohasiga baxshida etgan xalqparvar ma'rifatchi Abdulla Avloniy tarbiyani keng ma'noda tushunib, uni birgina axloq tarbiyasi bilan chegaralab qo'ymaydi. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida u avvalo, bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilish lozimligiga e'tibor qaratadi. Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun, avvalo, tan salomatligi zarur. Uning ta'kidlashicha, “Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlilik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar. Maishatimizni rohatda bo'lmog'i jasadimizning sog'lom bo'lmog'iga bog'lidir. Biz sihatimizni saqlamak ila amr o'linganmiz, shuning uchun vujudimizi hifzi-sihatga zid bo'lgan yomon odatlar ila churitmakdan saqlanmaklig'imiz lozimdur” [2, 14-15].

Abdulla Avloniy asarda bolaning badan tarbiyasi, uning salomatligi masalasiga katta e'tibor qaratgan. U ota-onalarga murojaat qilib, badan tarbiyaning fikr tarbiyasidagi

ahamiyatiga urg'u beradi: "Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila terisi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo'yib astarini yuvub ovora bo'lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog'lom bir vujud kerakdur. Shuning uchun ota-onalar bolalari kasal bo'lgan zamon beparvolik qilmay, tezlik ila tabib yoki do'xturga boqizmak kerak" [2, 15-b].

"Turkiy guliston yoxud axloq" asarida muallif salomatlikka xavf soluvchi zararli odatlarning salbiy illatlarini ham bayon etgan. U yoshlarda o'z faoliyatlarini tartibsiz olib borish ularda nosog'lom turmush tarzini shakllanishiga olib kelishi, salbiy odatlarni o'zlashtirgan odam vaqt o'tishi bilan o'zi-o'zini boshqarish qobiliyatidan mahrum bo'lishini aniq misollar bilan qayd etgan. Asarda jumladan, "Ichkulik, ko'knor, nasha, afyun, taryok, chilim, nos, popirus kabi badanning salomatligiga zararli, og'ulik, ba'zisi xarom, ba'zisi makruh, ba'zisi isrof bo'lgan narsalardan qochmak, saqlanmak shariat, aql, hikmat yuzasidan lozimdur" [2, 15-b], - degan edi.

**Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon (Yunusov) (1897-1938)** – 1897-yilda Andijon shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. Shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi va jamoat arbobi Cho'lpon shoirning taxallusi bo'lib, ismi-familiyasi Abdulhamid Sulaymonovdir.

Cho'lpon 1914-1917-boshlarida "Bahor ovullari", "O'sh", "Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar" hamda "Do'xtir Muhammadiyor" singari maqolalarida madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisi sifatida maydonga chiqdi. Insonni buyuk muhabbat bilan sevgan, inson qadri, sha'ni, erkini baland qo'ygan Cho'lponning ijoddagi izlanishlari millatning ertasi haqidagi tashvish, millat taraqqiysi, millat ozodligi kabi ulug' niyatlar bilan chambarchas bog'liq edi.

Cho'lpon o'z asarlarida asriy milliy qadriyatlar hamda mahalliy aholining mentalitetiga xos axloq-odob me'yorlarining himoyachisi sifatida gavdalanadi. Bu xususda uning quyidagi so'zlari fikrimizning dalilidir: "Ey qarindoshlar katta iltimosimiz shuldurki, Ovro'paning mo'dosidan, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarg'a bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatga o'xshashlik madaniyatlardan namuna olib, bul jihatdan taqlid qilmoqimiz lozimdur. Ovro'poning mo'dosi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir-qul qiladur. Bundan saqlaningiz!!!" [5].

**Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat (1886-1938)** – 1886 yil Buxoroda ziyoli oilasida tug'ildi. Ko'pqirrali va sermahsul ijodkor, o'tkir tilshunos, betakror dramaturg va shoir, jangovar publitsist, noshir va jurnalist, talantli davlat va jamoat arbobi Fitrat – Abduraufning taxallusi bo'lib, "tug'ma iste'dod" ma'nosini beradi.

Fitrat o'zining "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asarida bolaning badan tarbiyasi uning kamolotga yetishidagi muhim ahamiyati to'g'risida fikr yuritadi. Uning fikricha, "Bolaning badan tarbiyasi yetti yoshgacha ota-onaning vazifasi sanaladi. ...bunday tarbiyaning ma'nosi go'dakning jismini har xil odatlardan saqlab, asta-sekin kamolotga yetishtirish demakdir. Bola sog'lig'ining qanchalik nozik ekanini bilgan mamlakatlarda yangi tug'ilgan bolaning sog'lig'ini saqlash uchun ilm va tibbiy qoidalarni amalda qo'llaydilar. Shunday mamlakatlarning odamlari bolaning yuvintirilishi, yo'rgaklanishi, yeyish-ichishi va uxlashiga katta e'tibor beradilar" [4, 62-b].

Fitrat mazkur asarda tozalik barcha kasalliklarni keltirib chiqaruvchi mikroblarni bartaraf etish vositasi ekanligini alohida ta'kidlaydi. "... ozoda shahar, ko'cha, uylarni, odamlarni ko'rib bunday shaharlarda kasalliklar ham kam ekanligini bilmoqdalar. Aksincha,

qaysi shahar iflos va aholisining tabiati yaramas bo'lsa, u yerda kasallik ko'proqdir. Turkistonimizda, xususan yoz paytlarida kasalliklar avj oladi. Buning sababi ifloslikdir.

Kimki, salomat yashashni hohlasa, o'zini va ahli oilasini doim toza tutmog'i zarur. Musulmonlar uchun poklik diniy amrlardan sanaladi. ... Aziz o'quvchilarimizga ikkinchi marta aziyat bermasdan aytamizki, ifloslik va befarosatlik kishini turli kasalliklarga giriftor qiladi va yosh bolalarga ko'proq ta'sir qiladi. O'sha navnihollarni hayotimiz mevalarini, chirk ifloslik va beparvolikdan muhofaza qilish bizning burchimizdir" [4, 70-b].

Fitrat asarda badan tarbiyasining bola hayotidagi o'rni haqida muhim, qimmatli maslahatlarni qayd etadi. Jumladan, "... tarbiya uch xil bo'ladi... badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya. Bolaning tug'ilgan vaqtdan to emizishdan chiqqunicha badan tarbiyasining davri bo'ladi. Bu davrda aqliy va axloqiy tarbiya birinchi darajali emas" [4, 71-b].

Adib asarda kam harakatlilik yoki harakatsizlik, jismoniy faoliyatning yetishmasligi inson hayoti uchun ancha xavfli ekanligi, uning turmush tarziga salbiy ta'siri, harakatning inson hayotidagi muhim ahamiyati to'g'risida kishilarni ogoh qiladi. "Ba'zilar, - deb yozadi Fitrat,-farzandlarini zo'rlik bilan, jahlu haqorat bilan uydan ko'chaga, hatto, o'ynashga ham chiqarmaydilar. Bola bu amrga itoat qilib, uydan chiqmay yursa, "odobli bola" deydilar. Bunday odamlarning harakati xatodir. Havosi og'ir bo'lgan uylarda uzoq vaqt bo'lish, harakat qilmaslik, hatto, o'ynamaslik ko'p kasalliklarga sabab bo'ladi. Bola dangasa va ish bilmas bo'lib o'sadi. Xilvatga o'rgangan bola ulg'aygandan keyin ham xonadan chiqmaydi, odamlarga qo'shila olmaydi. Bir joyda kam harakat bo'lib o'tirish odamni ham zaiflashtiradi. Vaholanki, badanning rohati harakat sanaladi.... Bir joyda harakat qilmaslikda ko'proq zarar bor. Harakat vaqtida tanada qon yuguradi, ishtaha ochiladi, badanga quvvat kirib qalbni ochadi" [4, 75-b].

**Xulosa.** Turkiston jadidchilik harakati namoyondalari faqatgina o'lkada yangi usul maktablarini ochish, bolalarni savodli qilish ishlari bilan shug'ullanib qolmasdan, jamiyat hayotida inson va uning tutgan o'rni, inson fenomeni mohiyatini belgilovchi omillar, uning kamolotga erishuvdagi sog'lom turmush tarziga amal qilish zarurati, insonga berilgan fazilatlar, xislat va imkoniyatlar, ongli insonning bu imkoniyatlardan foydalanish darajalari, harakat va harakatsizlikning mohiyati, badan tarbiyaning kishi hayotidagi ahamiyati haqida ko'plab asar va maqolalar yozdilar. Shu davrning erishgan ilm - fani xulosalariga suyanib turib yaratilgan mazkur asar va maqolalarda jadidlarning insonning salomatligi, unga salbiy ta'sir etuvchi nopok illatlar, zararli odatlarga doir qarashlari aks etgan deyish uchun bir qator asoslar bor.

Turkiston jadidlarining inson omili, ta'lim-tarbiya, kishilarni sog'lom turmush tarziga amal qilish, badan tarbiya, zararli odatlardan himoyalash, oila va uning jamiyatdagi o'rni, komil inson, vatanpravarlik, ijtimoiy va madaniy hayotga doir ilgari surgan qarashlari bugun kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotganicha yo'q. Shuning uchun ham, biz jadid bobolarimiz tomonidan ilgari surilgan komil inson g'oyasi asosida mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, shu jarayonda yangi-yangi marralarni zabt etishimiz xaqida kelajak avlod orasida ko'proq tushintirish ishlarini yanada jadallashtirishimiz dolzarb masalalardan bo'lib hisoblanadi.

## Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://www.gazeta.uz/uz/2020/01/24/president-speech/>

2. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. - T.: O'qituvchi, 1992- 160 b.
3. Begimqulov Z. Turkistonda tashkil etilgan usuli jadid maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. "Jadidlarning ilmiy-pedagogik merosi: tarix va zamonaviylik" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari (2-to'plam), Farg'ona-2024.b 297-b.
4. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Ikkinchi nashr. Toshkent.: "Ma'naviyat", 2000-112 b.
5. Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar // Sadoyi Farg'ona. 1914 yil 6 iyun.

## **INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA BIR YILLIK SIKLDA 16-17 YOSHDAGI FUTBOLCHILARNING KUCH VA TEZLIK-KUCH TAYYORGARLIGINI REJALASHTIRISH**

**Bek Valijonovich Bekov** - dotsent, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali

**Annotasiya:** Ushbu maqola zamonaviy futbol mashg'ulotlarini Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda bir yillik siklda 16-17 yoshdagi futbolchilarning kuch va tezlik-kuch tayyorgarligini rejalashtirishni samarali tashkil etish masalalarini yaratib bergan. Ushbu rejalashtirish futbol mahorat maktablari, sport maktablari (SM) va ixtisoslashtirilgan sport maktablari (ISM), Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga sportchilar tayyorlash markazi (OPSTTM), futbol klublari va akademiyalari o'quv jarayonlarida foydalanganligi ahamiyatga bog'liq.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion texnologiyalar, "Catapult", kuch, tezlik-kuch, o'quv mashg'ulotlar, rejalashtirish, kompleks mashqlar. urinishlar (seriyalar).

**Kirish.** Xalqaro darajadagi raqobat va zamonaviy futbolning talablari sport zaxiralari tayyorlashda murabbiylar hamda mutaxassislar oldiga yangi vosita va uslubiyatlarni qidirish vazifasini qo'yadi. Ushbu rejalashtirish futbol mahorat maktablari, sport maktablari (SM) va ixtisoslashtirilgan sport maktablari (ISM), Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga sportchilar tayyorlash markazi (OPSTTM), futbol klublari va akademiyalari o'quv jarayonining futbolga yo'naltirilganligi va mazmunini belgilaydi. Zamonaviy sportning tobora ortib borayotgan talablar sport tashkilotlari va har bir murabbiyga o'z faoliyatining natijalarini sifatli oshirish uchun yangi qo'shimcha zaxiralarni qidirishga majbur qilmoqda. Futbolning hozirgi rivojlanish darajasi yosh futbolchilarni tayyorlash tizimida belgilangan qoidalarni qayta ko'rib chiqishni va innovatsion usul va uslubiyatini hamda texnologiyalardan keng foydalanishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda o'yinchilarning yuqori tezlik texnikasi va yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Miyaning faoliyat tezligiga ya'ni vaqt yetishmasligi sharoitda qaror qabul qilish va javob harakati tezligiga yuqori talablar qo'yilmoqda, maydon bo'ylab harakatlanish tezligining yuqori darajasi, portlovchi kuch, harakat koordinatsiyasi ham muhim hisoblanadi. Ushbu sifat va qobiliyatlarni bolalikdan va o'spirinlikdan rivojlantirish zarur. Shularni inobatga olgan holda ko'p yillik futbolchilarni tayyorlash jarayonini kuchayotgan talablarga muvofiq rejalashtirish zarur.

**Tadqiqot usullari:** 1. 16-17 yoshli futbolchilarni kuch va tezlik-kuch tayyorgarligi darajasini aniqlash uchi mashqlar tanlash.

2. “**Catapult**” tizimidan foydalangan holda o‘quv mashg‘ulotlarida va rasmiy o‘yinlarda portlovchi harakatlarni (kuch, harakat davomiyligi va ularning soni) bajarishda kuch va tezlik- kuch qobiliyatining namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash;

3. 16-17 yoshli futbolchilar uchun yillik o‘quv siklida kuch va tezlik-kuch tayyorlash dasturlarini nazariy jihatdan ishlab chiqish.

**Muhokama:** Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati bu shundan iboratki, ushbu muammoni o‘rganish sport zaxirasini tayyorlashda yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarlikka erishish mexanizmlari to‘g‘risidagi asosiy nazariy bilimlarni to‘ldiradi;

- futbolchilarning kuch va tezlik-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish darajasini baholash uchun mashqlar tanlash hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi taklif qilindi;

- “**Catapult**” tizimidan foydalangan holda o‘quv mashg‘ulotlarida va rasmiy o‘yinlarda portlovchi harakatlarni (kuch, harakat davomiyligi va ularning soni) bajarishda kuch va tezlik- kuch qobiliyatining namoyon bo‘lish xususiyatlarini to‘g‘risida yangi ma’lumotlar olindi;

- 16-17 yoshli futbolchilar uchun yillik o‘quv siklida kuch va tezlik-kuch tayyorlash dasturlarini nazariy jihatdan ishlab chiqildi. Ushbu rejalashtirish futbol mahorat maktablari, sport maktablari (SM) va ixtisoslashtirilgan sport maktablari (ISM), Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga sportchilar tayyorlash markazi (OPSTTM), futbol kublari va akademiyalari o‘quv jarayonining futbolga yo‘naltirilgan.

**Natijalar.**Futbolchilarning kuch va tezlik-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish darajasini baholash uchun Tezlik-kuchli tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun ularga quyidagi mashqlarni taklif qilamiz:

-Yuqori startdan 30 metrga yo‘nalish;

-Yuqori startdan 100 metrga yo‘nalish;

-Joydan uchta xatlab sakrash;

-2 oyoqqa tayanib oldinga sakrash;

-Bir-biridan aloqada turgan 10 to‘siqdan o‘tish 2x metr.

16-17 yoshli futbolchilarning o‘quv mashg‘ulot jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga zamonaviy “**Catapult**” tizimidan foydalanishni taklif qilamiz.

O‘quv mashg‘ulotlarida va rasmiy o‘yinlarda portlovchi harakatlarni (kuch, harakat davomiyligi va ularning soni) bajarishda kuch va tezlik- kuch qobiliyatining namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlashda “**Catapult**” tizimidan foydalaniladi.



**1-rasm**“Catapult” tizimidan olingan natijalar.

16-17 yoshli futbolchilar uchun yillik o‘quv siklida kuch va tezlik-kuch tayyorlash dasturlarini nazariy jihatdan ishlab chiqildi. Tezkor kuch sifatini tarbiyalash dinamik zo‘riqish usuli yordamida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, bu harakat tezligini tarbiyalash bilan uzviy bog‘liqdir. Asosiy vositalar - nomaxsus bo‘lgan (to‘psiz) sakrash mashqlari (bir oyoqda sakrash, ikki oyoqda sakrash; oyoqdan oyoqqa sakrash; qisqa masofaga tez yugurib, sakrab bosh bilan zarba berish harakatini bajarish; oyoq tizzalarini balandga ko‘targan holda harakatlanib bir oyoqda, ikki oyoqda sakrash; tez yugurish va sakrash harakatlarini turli kombinatsiyalarda bajarish).

Oyoq mushaklarining kuchini oshirish uchun qo‘llaniladigan sakrash mashqlari, maksimal kuch bilan bir yoki ikki oyoqda yerdan itarilib bir marotaba yoki qayta-qayta takrorlab bajarish mumkin.

1. Mashq. 30-50 sm balandlikdan sakrab tushish (futbolchilarning yoshiga qarab) ketidan tez yuqoriga sakrab chiqish.

2. Mashq. Ikki parallel gimnastika skameykada turib girya bilan sakrab tushish (16-24-32 kg, og‘irlik individual ravishda tanlanadi). Bir yondashuvda mashqni 8-10 marotaba sakrab, sub-maksimal kuch bilan bajarish. Bir seriyada 2 marotaba yondashuv, ular orasidagi tanaffus 2 daqiqa. 3-5 seriya tanaffus 2-3 daqiqa.


3. Mashq. Shtangani yelkaga qo‘yib sakrash. Shatgani og‘irligi individual ravishda maksimaldan 30-60% oraliq‘ida tanlanadi. Har bir sakrash dastlabki amortizatsion o‘tirish harakati va mushakning og‘irlik ta‘siridan uni yengib o‘tish harakatiga tez o‘tish orqali bajariladi. Har bir sakrashdan keyin mushaklarni silkitib qo‘yish kerak. Har bir yondashuvda 4-6 marotaba sakrash bajariladi, har bir seriyada 4-6 daqiqali tanaffus bilan 2-3 yondashuv; 2-3 seriya.

4. Mashq. Girya bilan sakrash, 6-8 marotabadan 2ta yondashuv. Keyin 3-4 daqiqa tanaffusdan so‘ng, bir joyda turib oyoqdan oyoqqa 8 marotaba sakrash, 5-6 marotabadan 2 ta yondashuv. Kompleks 6-8 daqiqali tanaffus bilan 2-3 marotaba takrorlanadi.

5. Mashq. Ko‘p sakrashlar bir joyda turib bir yoki ikki oyoq bilan yerdan itarilib 6-8 marotaba sakrashni o‘z ichiga oladi, masalan, bir oyoqda, oyoqdan oyoqqa yoki ikki oyoqda uch marotaba sakrash; bir oyoqda yoki oyoqdan oyoqqa besh marotaba sakrash; oyoqdan oyoqqa yoki navbat bilan bir oyoqda va boshqa oyoqda yerdan itarilib sakkiz marotaba

sakrash; Takroriy-seriyali usul, bir yondashuvda 3-4 marotaba takrorlash; bir seriyada 4-6 daqiqa tanaffus bilan 2-3 yondashuv; mashg'ulotlarda 6-8 daqiqa tanaffus bilan 2-3 seriya.

6. Mashq. Tashqi qarshilikka ega mashqlar (2 va 3-rasm). Juftlikda, bir joyda turib yoki harakatlanib bajariladi.



2, 3-rasm. Tezkor kuchni rivojlantirish uchun mashqlar.

7. Mashq. Futbolchi beliga rezina arqon o'tkizib to'g'ri chiziq bo'ylab 15-20 metr masofaga yuguradi, sherigi arqonni ushlab qarshilik ko'rsatadi. Mashq 1-1,5 daqiqa tanaffus bilan 10-15 marotaba takrorlanadi.

8. Mashq. Futbolchi joyida turib yuguradi, sherigi 3-4 metr orqada turib rezina arqonni 6-8 soniya ushlab turadi, so'ng qo'yib yuboradi va sportchi maksimal tezlikda 10-15 metr oldinga yuguradi; 40-60 soniya tanaffus bilan 10-16 marotaba takrorlash.

Tashqi qarshilik sifatida boshqa og'ir buyumlar ham (shinalar, shtanga diskleri va boshqalar) ishlatilishi mumkin. Og'irlikni sudrash mashqlarini bajarganda maksimal tortish og'irligining 20% bajarganda, asosan masofaviy tezlik o'sadi, 40% bajarganda esa – start tezlashuvining tezligi oshadi.

9. Mashq. 10 soniya tribuna zinalaridan yuqoriga yugurish. Takrorlash soni 4-6 marotaba. Tanaffus 1 daqiqa.

10. 30-40 metr tepalikka yugurish. Takrorlash soni 6-8 marotaba, tanaffus 1-2 daqiqagacha.

**Xulosa.** Olib borilgan tadqiqotimizdan xulosa qilib shuni aytish keraki 16-17 yoshli futbolchilarning o'quv mashg'ulot jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan xususan zamonaviy "Catapult" tizimidan foydalanishni taklif qilamiz. Hozirgi kunda faqat terma jamoalar va aksariyat superliga klublari ushbu zamonaviy texnologiyadan foydalanmoqda ammo 16-17 yoshli mahorat maktablari, sport maktablari va ixtisoslashtirilgan sport maktablari, Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga sportchilar tayyorlash markazi, futbol klublari U-19, U-21 va akademiyalari o'quv mashg'ulot jarayoni hamda nazorat o'yinlarida foydalanmasligi futbolchilarning tizimli tayyorlashda yetarlicha muammolar keltirib chiqaradi. Biz esa zamonaviy innovatsion texnologiyalardan keng foydalanishni qo'llab quvatlaymiz. Catapult tizimi bizga o'quv mashg'ulotlarida va rasmiy o'yinlarda portlovchi harakatlarni (kuch, harakat davomiyligi va ularning soni) bajarishda kuch va tezlik- kuch qobiliyatining namoyon bo'lish va yana bir qancha futbolchilar haqida ma'lumotlarni qayta ishlada va mashg'ulot rejalashtirishda va xususiyatlarini aniqlashda ushbu tizimidan keng foydalandik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Иванова Л. А., Савельева О. В. Анализ информационных технологий в области физической культуры и спорта // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2015. – № 8 (август). – С. 81–85.

2. Исеев Ш.Т. Беков Б.В. Инновационные методики в управлении физической подготовкой юных футболистов / Республиканская научно-практическая конференция «Пути повышения профессиональной компетентности менеджеров в сфере физической культуры и спорта» 1-19 декабря 2020 года. Чирчик. С. 231 – 235.

3. Jaxbarov A.S. Futbolchilarning tayyorgarligini kompleks nazorat qilish asoslari. <https://jtsiti.uz>, Respublika anjuman (2024) 414-417 bet

4. Jaxbarov A.S. Operativ nazorat va mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish hamda tashkil etishda futbol trenerlarining o'rni. Fardu ilmiy xabarlar jurnali (2024-1) 265-270 bet

5. Abulfayz J. Pedagogical characteristics of education of physical skills of young football players //international journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 impact factor: 7.429. – 2023. – т. 12. – №. 02. – с. 34-38.

6. Abulfayz J. Pedagogical characteristics of education of physical skills of young football players //international journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 impact factor: 7.429. – 2023. – т. 12. – №. 02. – с. 34-38.

## MOLIYAVIY JIHATDAN BARQAROR 3X3 BASKETBOL KLUBINI BOSHQARISH



*Bilinki tizimni to'g'ri yo'lga qo'yish ishingizdagi eng katta yutug'idir*

Yuqoriga ko'tarilish uchun albatta narvon kerak, bu zamonaviy bo'lsa yana yaxshi.

*D.R. Norkulov*

**Norkulov Doniyorbek Raxmiddinovich** - Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Farg'ona filiali jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati kafedrasini p.f.b.f.d (PhD), Dotsent.

**Annotatsiya.** Moliyaviy jihatdan barqaror basketbol klubini boshqarish, puxta rejalashtirish va oldindan o'ylab ko'rishni talab qiladi, ammo to'g'ri strategiya bilan siz o'z jamoangizni to'g'rilash va ularning butun mavsum davomida muntazam yuqori cho'qqilarda bo'lishingiz uchun to'g'ri tizimni yo'lga qo'yish lozim.

Ushbu maqolada biz sizga har birining kuchli va yuksak natijalarga erishishni 9 xil usuldan foydalangan holda moliyaviy barqaror 3x3basketbol klubini qanday boshqarishni ko'rib chiqamiz.

**Moliyaviy jihatdan barqaror 3X3 basketbol klubini boshqarishni 9+1 dasturi.**



### 1. Klubingizga biznes kabi munosabatda bo'ling

Moliyaviy jihatdan barqaror 3X3 basketbol klubini boshqarish yaxshi rahbarlik va tashkilotchilik qobiliyatini talab qiladi. Moliyaviy jihatdan barqaror 3X3 basketbol klubini tashkil etish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jarayonida sizga yordam beradigan ko'plab manbalar mavjud.

**Quyidagi usullar buni qanday qilishning misolidir:**

### 2. Klubingizning moliyaviy ehtiyojlarini aniqlang.

Barcha klublar trenerlik maoshi, obyekt ijarasi to'lovlari, asbob-uskunalar sotib olish xarajatlari, formalar, uydan tashqaridagi o'yinlar yoki turnirlar uchun sayohat xarajatlari va boshqalar kabi sarflanadigan xarajatlar uchun pulga muhtoj.

Klublar, shuningdek, reklama xarajatlari (jumladan, ijtimoiy tarmoqlar), jamoangiz har yili qatnashadigan uy hududidan tashqarida o'tkaziladigan ligalar yoki turnirlar uchun ro'yxatdan o'tish to'lovlari va ishtirok etish uchun kerak bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa yillik talablar kabi qo'shimcha mablag'larga muhtoj.

### 3. Barcha xarajatlarni yozib oling.

Xarajatlarni hisobga olish juda muhim, chunki bu sizning byudjetingizdan ustun turishingizga yordam beradi va pulingiz qayerga ketayotganini ko'rishga imkon beradi. Bu pulni tejash yo'llarini topish uchun ham imkoniyat bo'lishi mumkin.

Ba'zi odamlar uchun basketbol klubini boshqarish pul oqimi haqida qayg'urmasdan oson ish bo'lib tuyulishi mumkin, ammo moliyani kuzatib borish ularning xayoliga ham kelmasligi mumkin.

Agar biz 3x3 basketbol klubimiz moliyasi yaxshi ishlashini istasak, har bir kirib kelayotgan va chiqayotgan har bir summani yodda tutib va albatta yozib yurishimiz kerak.

Bu bizga har qanday tejash imkoniyatlaridan foydalanish va ehtimoliy moliyaviy kutilmagan hodisalarni rejalashtirish imkoniyatini beradi.

### 4. Tadbirni o'tkazish uchun sarflagan xarajatlaringizni aniqlang.

Tadbirni o'tkazish qimmatga tushishi mumkin. 3x3 basketbol to'plari va to'rlar narxi kabi ko'p narsalarni qilishdan oldin o'ylab ko'rishingiz kerak bo'ladi.

Shuningdek, siz o'yinchilar uchun suv va oziq-ovqat olishingiz kerak bo'ladi. Boshqa xarajatlar ligangizga qarab hakamlar yoki boshqa turdagi amaldorlarni o'z ichiga olishi mumkin.

### 5. Favqulodda jamg'armaga ega bo'ling.

Favqulodda vaziyatlar fondi sizning klubingiz faoliyati uchun eng muhim narsadir. Bu nafaqat pulni, balki vaqtni ham tejashdir.

Agar kutilmagan voqea ro'y bersa va sizda favqulodda vaziyatlar fondi bo'lsa, pul topish uchun ovora bo'lishingiz shart emas – buning uchun siz doim tayyorsiz!

Vaqtini tejash har qanday puldan qimmatroq, shuning uchun hoziroq rejalashtirishni boshlang.

#### **6. Siz qilayotgan ishlaringizni qo'llab-quvvatlovchi mahalliy korxonalar va tadbirkorlar bilan hamkorlik qiling.**

Siz qilayotgan ishlaringizni qo'llab-quvvatlaydigan mahalliy korxonalar va tadbirkorlar bilan hamkorlik qilishingiz kerak.

O'qituvchi gapiradi, o'quvchi esa tinglaydi va o'rganadi, lekin tayyor ma'lumotni tinglash o'qitishning eng samarasiz usullaridan biri hisoblanadi. Bilimni mexanik ravishda boshdan boshga o'tkazib bo'lmaydi (eshitilgan –o'rganilgan). Shuning uchun o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish zarur.

Bugungi kunda, muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o'quvchilar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanad Muammoli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu erda shaxs sub'ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi- pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyg'otishdir. Muammoli o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiq o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy, bayon etish o'quv materialining eng maqbul tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o'quvchini uni yechishga yo'naltiradi, echimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab qiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalardan faol foydalangan holda tizimli ishlar mutaxasislarning fanga bo'lgan qiziqishini, o'quv faolligini oshiradi, bilimlarni chuqur va doimiy o'zlashtirishni ta'minlaydi, tafakkuri, xotirasi va nutqini rivojlantiradi, halollik, mehnatsevarlik va vijdonli munosabatni tarbiyalashga xizmat qiladi. tarbiyaviy ishlar, shuningdek, asosan mutaxasislarning reproduktiv faoliyatini faollashtiradi. O'qitishning muhim xususiyati-bilimlardan foydalanish, ularni umumlashtirish va tizimlashtirishda samarali faoliyat uchun sharoit yaratishdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ta'lim jarayonini bunday tashkil etish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ularni diqqatli bo'lishga majbur qiladi, ularni tahlil qilishga, taqqoslashga, asosiy narsani ajratib ko'rsatishga o'rgatadi, ularni sinfdagi passiv tinglovchilardan faol ishtirokchiga aylantiradi. Biroq zamonaviy ta'lim va axborot

texnologiyalarini joriy etish ularning an'anaviy o'qitish metodikasini to'liq o'rnini bosishini anglatmaydi, balki uning tarkibiy qismi bo'ladi. Zero, pedagogik texnologiya - bu o'rganish nazariyasiga asoslangan va rejalashtirilgan natijalarni ta'minlovchi ta'lim faoliyatini tashkil etish usullari, uslubiy texnikasi, shakllari yig'indisidir. Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchiga turli xil innovatsion usullardan "o'zinikini" tanlash, o'z ish tajribasiga yangicha qarash imkoniyatini beradi. Bugungi kunda zamonaviy darsni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'z pozitsiyangizni yangicha tushunish, nima uchun va nima uchun o'zgarishlar kerakligini tushunish va birinchi navbatda o'zingizni o'zgartirish kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Belozertsev, E.P. Kasbiy ta'lim pedagogikasi: darslik 2008.
2. Borisova, N.V. Ta'lim texnologiyalari pedagogik tanlov ob'ekti sifatida:darslik., 2000.
3. Gulova, M.N. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: darslik. DPT 2013
4. Abdulkarimov H., Suvonov O. Umumiy pedagogika: Texnologiya va amaliyot. O'quv-metodik qo'llanma. T 2012 y.
5. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. 2003.
6. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar, 2003y.
7. M.T. Qadiraliyeva, U.Ganiyeva, M.B.Shodmonkulova, «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya 2023
8. Adasheva Mavludaxon Umataliyevna EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center Volume Issue 2,February 2023

### **JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA QAYTA TAYYORLASH, MALAKA OSHIRISHNING ILMIY-TASHKILY OMILLARI**

**Abdumannotov Abumajit Matayevich** - Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali "Jismoniy tarbiya sport nazariyasi va uslubiyati" kafedrasi.

**Annotatsiya:** Jismoniy tarbiya va sportda tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishda bir qancha global muammolar mavjudligi, maqolada global muammolar va uni bartaraf etishda chiqarilgan qonun, qaror va farmonlar, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va filiallari oldidagi vazifalar, qilinayotgan hamda olib borayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qonun, qaror, farmon, jismoniy tarbiya, sport, tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish, dastur, o'quv-uslubiy qo'llanma.

**Аннотация:** Существует ряд глобальных проблем подготовки, переподготовки и повышения квалификации в сфере физической культуры и спорта, в статье представлены глобальные проблемы и законы, решения и постановления, изданные для их устранения, перед институтом и отделениями переподготовки и повышения квалификации кадров специалистов по физическому воспитанию и спорту. Дана информация о задачах и текущей работе.

**Ключевые слова:** Закон, решение, указ, физическая культура, спорт, обучение, переподготовка, повышение квалификации, программа, учебное пособие, глобальная проблема.

**Abstract:** There are a number of global problems of training, retraining and advanced training in the field of physical culture and sports, the article presents global problems and laws, decisions and regulations issued to eliminate them, before the institute and departments of retraining and advanced training of specialists in physical education and sports. Information about tasks and current work.

**Key words:** Law, decision, decree, physical culture, sports, training, retraining, advanced training, program, textbook, global problem.

Jismoniy tarbiya va sportda tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishga chuqur ilmiy-uslubiy yondashishni talab etadi.

2023-yil 23-24-iyun kunlari Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filialida "Globallashuv jarayonida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi dolzarb muammo va yechimlar" nomli "Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman" o'tkazildi, mazkur anjuman to'plami 2 tomda nashr etildi, 1 tomda 110-ta maqola, 2 tomda 119-ta maqola, jami: 229 ta ilmiy maqola va tezislar nashr etildi.

Malaka oshirish, uzluksiz ta'lim tizimi turlaridan biri, barcha sohada ishlovchi mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish jarayoni.

Kadrlarning raqobatbardoshlik sifatleri hamda bilim va ko'nikmalarining zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlaydi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash har bir xodimning o'z mutaxassisligi bo'yicha so'nggi fan yutuqlari, yangiliklari bilan tanishish, ularni o'zlashtirish, yangi amaliy ish usullari, ilg'or ish tajribalarini o'rganishdan iborat ilmiy nazariy hamda amaliy tayyorgarlik jarayoni hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka oshirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 355-sonli qarori bo'yicha 4 yilda 1-marotaba o'tkaziladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka oshirish, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti uning Samarqand, Farg'ona, Nukus filiallarida amalga oshiriladi. Mazkur jarayon ishlab chiqarishdan ajralgan, qisman ajralgan va ajralmagan holda olib borilmoqda. Uning shakli Malaka oshirish ta'lim muassasasi tomonidan ta'lim dasturining murakkabligi e'tiborga olingan holda va buyurmachining tuzilgan shartnomasi asosidagi ehtiyojlariga muvofiq ravishda belgilangan.

Joriy yilda Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filialida malaka oshirish kursi rejasi bo'yicha "Maktabgacha va ta'lim tashkilotlari jismoniy tarbiya instruktorlari" jami: 678 nafar. "Umumiy o'rta ta'lim maktabi jismoniy tarbiya o'qituvchilari" jami: 2194 nafar. "Professional ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya o'qituvchilari" jami: 17 nafar. "Sport ta'lim muassasalarining tarbiyachilari" jami: 49 nafar. "Sport ta'lim muassasalari sport turlari bo'yicha trenerlari" jami: 790 nafar. Jami: 3728 nafar tinglovchilarning malaka oshirishi rejalashtirilgan.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va uning filiallari bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarni

qayta tayyorlash va malakasini oshirishda muhim vazifalarni amalga oshirmoqda, biroq jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning ish faoliyatini olib borishda, ayrim muammo va kamchiliklar mavjud.

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, professional ta'lim, sport ta'lim muassasalari yo'nalishlarining jismoniy tarbiya va sport sohasida ish faoliyat olib borayotgan xodimlarning mutaxassislik va ixtisosligidagi (nomutaxassis, nopedagog ekanligi) muammolar.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, professional ta'lim, sport ta'lim muassasalari yunalishlarining jismoniy tarbiya va spor sohasida o'quv-uslubiy adabiyotlarning yetarli emasligi, mavjudlari chekka hududlarga yetib bormaganligi.

3. Sport ta'lim muassasalarida sport turlari bo'yicha ko'p yillik o'quv dasturlarning (ayrim sport turlari bo'yicha dasturlarning mavjud emasligi) to'liq ishlab chiqilmaganligi.

4. Umumta'lim maktablarida darsdan tashqari ishlarning sport klublarida sport turlari bo'yicha to'garaklarni tashkil qilish va o'tkazishda bir xillikdagi yagona yosh va jins xususiyatlariga mos tasdiqlangan dasturlarning ishlab chiqilmaganligi.

5. Mavjud elektron adabiyotlardan foydalanishda chekka hududlarga internet tarmog'ining ishlash darajasi pastligi, yoki yetib bormaganligi.

6. Jismoniy tarbiya va sport sohasida chekka hududlarda ish faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning internet tarmog'idan foydalanish holati yetarli, (qoniqarli) darajada emasligi.

Yuqorida keltirilga shu kabi va boshqa muammolarni yechishda jismoniy tarbiya va sport sohasida qayta tayyorlash va malaka oshirish muhim va zarurdir.

Jismoniy tarbiya va spor bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotganligini chiqarilayotgan qonun, qaror, farmonlarda ham ko'rishimiz mumkin.

2020-yil 23-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi 637-sonli Qonunining 13-moddasida Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish belgilanganligi.

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlanishi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qilishi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanganliklari ko'rsailgan. [1.1]

2020-yil 3-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 653-sonli Qonunining 2-moddasida O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi 513-XII-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrda qabul qilingan O'RQ-394-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining Axborotnomasi, 2015-yil, №-12, 383-modda, 2017-yil, №-6 300-modda, 2018-yil, №-1, 1-modda №-7, 431modda) 3 ta moddasiga o'zgartirish kiritilganligi, shundan 2 ta moddasi 8-10-moddalari jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishga

qaratilganligi ham jismoniy tarbiya va sportda tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish muhim va zarurligidan dalolat beradi.

1) 8-modda ikkinchi qismining o‘n turtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etildi.

“sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etadi hamda o‘tkazadi, shuningdek jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni tashkil etadi”.

2) 10-modda birinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etildi.

“jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda ishtirok etadi”.

[2.1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2021-yil 6-apreldagi PQ-5054-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida 2022-yil 4-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 355-sonli qarorining ishlab chiqilganligi.

Qarorga ko‘ra jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar malakasini oshirishni bevosita (to‘g‘ridan to‘g‘ri), muqobil, mustaqil, ilmiy-tadqiqot muassasalarida va xorijda tajriba orttirish shakllari bo‘yicha amalga oshirish hamda malaka oshirish shakllarining umumiy davomiyligini kamida 4 hafta (144 soat) etib belgilash, malaka oshirishning bevosita (to‘g‘ridan to‘g‘ri) shakli uchun auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ishlarning hajmi haftasiga 36 soat etib belgilandi.

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlashni pedagogik va kasbiy hamda maxsus o‘quv kurslarda o‘qitish shakllari bo‘yicha amalga oshirish hamda qayta tayyorlash davomiyligi va o‘quv yuklamasi hajmini pedagogik va kasbiy qayta tayyorlashni-kamida 4 oy (576 soat), maxsus o‘quv kurslarini 3 oy (432 soat), 6 oy (864 soat), 10 oy (1440 soat) etib belgilandi. [6.2].

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat sport-ta‘lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-268-sonli Qarorida belgilab berilgan, sport federatsiya (assotsiatsiya)larining talabnomalariga asosan noolimpiya sport turlari bo‘yicha faoliyat olib borayotgan trenerlarni olimpiya sport turlari bo‘yicha qayta tayyorlash, kasbiy qayta tayyorlash hamda “Spor faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)” maxsus o‘quv kurslarini tashkil qilib mutaxassislarni tayyorlab kelmoqda.

1. Kasbiy qayta tayyorlash kursi: (oliy pedagog ma‘lumotlar uchun) muddati 22 hafta o‘quv soati 792 soat.

Jismoniy tarbiya fanini o‘qitish huquqini berish bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi bitiruvchilari jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha ma‘lumotga hamda umumta‘lim makablarida jismoniy tarbiya fani o‘quvchisi, sport ta‘lim muassasalari va tashkilotlarida trener lavozimida ishlash huquqiga ega bo‘ladilar;

2. “Spor faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)” maxsus o‘quv kursi: (sport faoliyatini yakunlagan I kattalar sport razryadli sportchilar uchun);

-muddati 3 oy 432 soat (oliy ma‘lumotli sportchilar uchun);

-muddati 6 oy 864 soat (o‘rta maxsus ma‘lumotli sportchilar uchun);

-muddati 10 oy 1440 soat (o‘rta ma‘lumotli sportchilar uchun);

“Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)” maxsus o‘quv kursi bitiruvchilari, jismoniy tarbiyav asport bo‘yicha ma’lumotga hamda sport ta’lim muassasalari va tashkilotlarida sport turlari bo‘yicha trener lavozimida ishlash huquqiga ega bo‘ladilar.

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va filiallarining professor-o‘qituvchilari oldida global muammolarni bartaraf etishda bir qancha qilinadigan ishlar mavjud. bu kabi muammolarni bartaraf qilishda professor-o‘qituvchilar tamonidan ko‘p yillik o‘quv dasturlar, darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatma, uslubiy tavsiyalar tayyorlab, tinglovchilarni kompyuter savodxonligini oshirishda, kasbiy bilim malaka ko‘nikmalarini takomillashtirishga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Ta’lim to‘g‘risida” Toshkent sh; 2020-yil 23-setabr, O‘RQ-637-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Toshkent sh; 2020-yil 3-dekabr, O‘RQ-653-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-5054-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-sonli Qarori.

### **O‘SMIR SPORTCHILARDA SPORT FAOLIYATI MOTIVLARI TADQIQI**

**Arzibayev Q.O** – dotsent, Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institut.

**Annotatsiya:** maskur maqolada o‘smir sportchilarda sport faoliyati, sport faoliyatiga undagan motivlar ularning xususiyatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari yoritib o‘tilgan.

**Аннотация:** в статье освещены результаты исследования спортивной деятельности спортсменов-подростков, мотивации к спортивной деятельности и ее характеристики.

**Kalit so‘zlar:** o‘smir, sport, sportchi, trener, munosabat, motiv, motivatsiya, komponent, xususiyat, karate, ijtimoiy muhit, axloq, omillar.

**Ключевые слова:** подросток, спорт, спортсмен, тренер, отношение, мотив, мотивация, компонент, характеристика, каратэ, социальная среда, мораль, факторы.

Jahon hamjamiyatida jismoniy tarbiya va sport sohasiga zamonaviy bilim, ilg‘or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida, shaxs va uning ijtimoiy muhit bilan aloqasi, faoliyat turlari va uning inson hayotidagi o‘rni, sportdagi natijalari rivojlanishini ta’minlovchi psixologik shart-sharoitlar kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, yoshlar va bolalar sportini rivojlantirish, ular orasida sportga qiziqishni oshirish masalasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Sport motivlari, sportning o‘ziga xos xususiyatlari, sport yutuqlari darajasi, yoshi, jinsi, sportchining sport

tajribasi, shuningdek, shaxsiy fazilatlarining o'zini o'zi baholashi kabi sport faoliyati bilan bog'liq ustivor masalalar hozirga qadar, psixologiya sohasi mutaxassisleri tomonidan dolzarb muammo sifatida o'rganib kelinmoqda.

Inson komilligini uning ma'naviy va jismoniy yetukligi belgilab berishini tibbiyot ilmi sultoni mutafakkir Abu Ali ibn Sino o'zining mashhur "Tib qonunlari" asarida, "Sog'liqni saqlashning asosiy tadbiri badantarbiya" ekanligini ta'kidlar ekan, "badantarbiyaning nozik va yengil usullari" qatori uning kuchli – "nayza otish, chavgon, kurash, tosh ko'tarish, chavandozlik", kabi o'sha davrlarda ham juda ommalashgan milliy sport turlari bilan shug'ullanishning ahamiyatini batafsil ta'riflab bergan.

Ibn Sino o'zining mashxur asari "Tib qonunlari"ning birinchi kitobida jismoniy mashg'ulotni kishining yoshiga, sog'lomligi yoki kasalligiga qarab, turlicha shakl va usullarda o'tkazish kerakligini ta'kidlaydi. "Har bir odamga o'ziga xos harakat tanlanishi kerak". [2]

Ibn Sinoning jismoniy tarbiya sohasidagi fikrlarining xarakterli tomoni shundaki, bu masalani u kishi faoliyatining boshqa tomonlaridan ajralgan holda emas, balki insonning barcha faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda olib qaradi. Chunki, Ibn Sino jismoniy tarbiyani bolaning yoshiga, kuchiga va hayotiy tajribasiga yarasha olib borish kerakligini, jismoniy mashqlar kishining organizmini mustahkamlash bilan bir qatorda, u kishining ruhini tetiklashtirishga, aqliy qobiliyatining o'sishiga ham katta yordam berishini uqtiradi.

Hadis ilmining buyuk namoyondalaridan biri Al-Buxoriy insonlarning barcha ijtimoiy-madaniy turmush sharoiti va mehnati bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlarini musulmon olamiga yoydi. Bunda insonning tug'ilishi, bolalarning odob-ahloqi, kasb-hunar egallashi va ularni jismoniy kamolotga erishish masalalari eng oldingi safga qo'yildi. Uning ta'kidlashicha, Navro'z, hayit va boshqa marosimlarda qilichbozlik va nayzabozlik o'yinlari qiziqarli bo'lgan. Shuningdek, hajga boruvchilarni to Makkagacha piyoda yurishga da'vat etganlar. Bu jihatlarning mazmunida ziyorat, gunohlarni yuvish kabi fazilatlar yotsada, aslida ularning tub negizida insonlarning tetik, bardam bo'lishi zarur bo'lganda, qurol ishlata bilish kabi jismoniy tayyorgarligi masalalari ham tarkib topganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur va uning lashkarboshlari jangchilarning jismoniy chiniqqan, baquvvat va ephil bo'lishi muhimligini yaxshi tushunganlar, juda ko'p harbiy yurishlar taqdirini jangchilarning mahorati va jasorati hal qilar edi. Shu bois Amir Temur askarlar tanlashda quyidagilarga e'tibor berar edi. Qo'shin tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim:

*birinchidan* – yigitning kuch quvvati,

*ikkinchidan* – qilichni o'ynata olishiga, uchinchidan – aql-zakovati-yu kamolatiga e'tibor qildim.

Shu fazilatlar jamuljam bo'lsa, navkarlik xizmatiga oldim. Negaki kuch-quvvatli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azobu uqubatlarga chidamli bo'ladi, qilich o'ynata oladiga kishi raqibini mag'lub eta oladli, oqil navkar har joyda aql-idrokini ishga solib, mushkulotni daf etmog'i mumkin. [6]

Sharqning buyuk faylasuflaridan biri Abu Nasr Farobiyning tavsifi bo'yicha "Qalb holatini mo'tadil saqlash uchun sog'lom vujud zarur" dir deb takidlaganlar. Buning mazmunida hozirgi davrdagi anatomiya, fiziologiya, psixologiya, jismoniy tarbiya va sport, tibbiyot fanlari asosida odam tanasining tuzilishi, uning barcha faoliyatlarini rivojlantirish yo'llari hamda ruhiy jihatdan doimo o'zini boshqara bilishi kabi juda murakkab hamda keng qamrovli tarbiyaviy jarayonlar mujassamlashganligi ilmiy-pedagogik jihatdan to'liq isbotlangan.

Umuman olganda, qadimgi tarixiy manbalr va ulug‘ mutafakkir olimlarning ilmiy meroslaridan insonni tarbiyalash, ularning mehnat, turmush va jangovorlikka tayyorlash masalalari talqin qilinganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Shoir, mutafakkir, davlat arbobi Yusuf Xos Xojib asarlarida ham insonning haqiqiy kamolatga yetishishida aqliy va ahloqiy tomondangina emas, jismoniy tomondan ham sog‘lom bo‘lishi kerakligiga katta e‘tibor beriladi.

Uning Kaykovus “Qobusnoma” asarida jismoniy tarbiyaga ham katta e‘tibor berilgan. Zero Kaykovus asarini juvonmardlar tarbiyasiga bog‘ishlanar ekan, ularning eng avvalo jismoniy sog‘lom bo‘lib kamolga yetishini alohida ta‘kidlaydi.

Kaykovus bir kecha kunduzni shunday taqsim etadi: sakkiz soati ibodatga, sakkiz soati ishratga va ruhni toza qilmoqqa va sakkiz soati manashu o‘nolti soat davomida qiynalgan a‘zolarga orom bermoqqa tayin etmoq kerakdur, toki a‘zo harakat takallufidan osuda bo‘lsin”. [9]

Shoir, adib va mutafakkir Muslihiddin Sa‘diy Sheroziyning “Guliston” asarida inson kamolatida jismoniy yetuklik ham asosiy omillardan biri sifatida talqin etiladi. Xususan, har qanday davrda ham ulug‘lanadigan mardlik, chaqqonlik, jasurlik, kuchlilik har bir yigit egallashi zarur bo‘lgan xislatdir. Bu xislat inson gavdasiga emas, uni egallab olishiga bog‘liqdir.

Saydiyning jismoniy tarbiyaga oid kandlari ham axloqiylik bilan bog‘liqdir. Xususan chiniqishning inson salomatligiga naqadar foydaliligi bilan birga insonda o‘ziga ishonch, shod yashash ishtiyoqi, kelajakka umid bilan qarash kanchalik ahamiyatga ega ekanligi yaqqol ko‘rsatilgan. [30]

Alisher Navoiy asarlarida insonning har tamonlama barkamol bo‘lib yetishishida kishilarning jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lishiga ham jiddiy e‘tibor berilgan. Masalan uning qaxramonlari Farxod, Qays, Iskandar, obrazlarida jismoniy tarbiya va dilovarlik ta‘limini ko‘ramiz. Zero, bunday ta‘lim-tarbiya qadim davrlardan boshlab an‘anaviy tarzda davom etib, takomillashib borgan. [22]

Umuman insonning sog‘lom va baquvvat bo‘lib yetishishini haqidagi o‘g‘itlari o‘sha davr ta‘lim-tarbiyasiga oid ta‘limiy ahloqiy asarlarida yetakchi o‘rinlarni egallagan.

Avloniyning fikricha inson sog‘lom fikr, yaxshi axloq ilm-ma‘rifatga ega bo‘lishi uchun badanni tarbiya qilish zarurdir. “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmag‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qimoq-o‘qitmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir”.

A. Avloniy badan tarbiyasi masalasida ota-onalarga murojat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o‘qituvchilarning faoliyatiga alohida e‘tibor beradi.

Jism ila ruh ikkisi bir choponning o‘ng ila terisi kapidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini quyib astarini yuvub ovora bo‘lmoq kapidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog‘lom bir vujud kerakdur. Shuning uchun ota-onalar bolalari kasal bo‘lgan zamon beparvolik qilmay, tezlik ila tabib yoki duxturga boqizmak kerak. Imom Shofe‘i hazratlari: “Ilm ikki xildur: biri badan ilmi, ikkinchi din ilmi”, – demishlar. Bunga karaganda eng avval hifzi sihat qoidalarini bilmak, salomatlikga ters bo‘lgan narsalardan saqlanmak ila bo‘ladur – degan fikrlarni yuritganlar. [4]

Fitrat jismoniy tarbiyaga, kishining salomat va baquvvat bo‘lib tarbiyalanishiga alohida ahamiyat beradi: “Badan tarbiyasiga qadim zamonlardan boshlab katta ahamiyat berilgan. Insonning butun a‘zosi salomat va quvvatga ega bo‘lmasa, unda inson uzoq yashamaydi. Agar

insonning tanasidagi a'zolaridan biriga kasal tegsa, u kishi ishdan qo'lini tartib, boshqalarning muhtojiga aylanadi".

Fitrat yana bolalarning sog'lom, jismonan yetuk bo'lishlari uchun tozalikning ahamiyati juda kattaligini tushuntirib o'tadi: "Nazofat (tozalik) va pokizalik ham bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga egadir. Nazofat va pokizalik kattalar uchun kanchalik lozim bo'lsa kichik bolalarga ulardan ko'ra o'n barobar zarurdir. Avval bolalar kattalarga nisbatan oldinroq xastalik qobiliyatiga ega. Shuning uchun ifloslik har qanday bemorlikni keltirib chiqaradigan manba bo'lib, ifloslik kattalarga nisbatan bolalarga o'n barobar ziyon yetkazadi". [3]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, falsafiy, pedagogik, sosiologik qarashlarda antik davrdan boshlab shaxs jismoniy kamoloti masalasiga katta urg'u berilgan. Har bir alloma o'zining jismoniy kamolot masalasidagi mezonlarini ilgari surgan.

Muammoga tegishli bo'lgan adabiyotlar taxlildan kelib chiqib, sport faoliyatini psixologik qo'llab-quvvatlashda, motivatsiya shaxsni sport bilan shug'ullanishga undaydigan asosiy omillaridan biri bo'lib, alohida o'rin tutadi.

Sport faoliyati motivlari xorij psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Xususan, P.A. Rudik [28], A.S. Puni[26], T.T. Djamgarov[13], Y.M. Palayma[24], Y.P. Ilin[15], V. Goshek[11], V.K. Vilyunas [9], S.S. Sagaydak [29], Y.P. Sherbakov[36], G.D. Babushkin [7], R.A. Piloyan[25], G.D. Gorbunov [11], V.A. Demin [12], L.P. Dmitrenkova[14], Ye.A. Kalinin[16], X. Xekxauzen [35], V.I. Tropnikov [32], L.G. Ulyayeva. [33] va boshqalar tomonidan keng doirada tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tadqiqotlarda sport faoliyatining motivlarining mazmun mohiyati, sport bilan shug'ullanish motivlari guruhlarini, sportchi shaxsining motivasion doirasini, sport motivining dinamikasini, sport faoliyati motivining boshqa motivlar bilan aloqadorligi, sport faoliyati motivlarining shaxs xususiyatlari bilan bog'liqligi masalalari ochib berilgan.

Motivatsiya muammosining muhim jihatidan uning sababligi, determinasiya masalasi hisoblanadi. Olimlarning fikriga ko'ra (C.L. Rubinshteyn[28], V.S. Merlin[21], A.G. Asmolov[5], P.M. Yakobson[39], V.G. Leontyev[18], D.A. Leontyev[19], Y.R. Nutten[23], G. Caprara[17], A. Bandura[8], G. M. Harry[35], A. Tesser[32] va boshqalar) motivasion holatlar yosh va etnos xususiyatlari, ichki va emosional jarayonlar, shaxsning irodaviy sifatlari, intellekt darajasi, axloqiy nazorat, o'zi haqidagi tasavvurlar, ma'lum bir standartlar bilan solishtirgan xolda o'z harakatlarini baholash xususiyatlari, shaxsning tipologik xususiyatlari bilan, faoliyatni amalga oshiruvchi maqsadlar, refleksiv o'zini o'zi boshqarish jarayonlari va boshqalar.

Ijtimoiy omillar shaxs va uning motivasiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi (S.L. Rubinshteyn[27], L.I. Ansiferova[19], B.F. Lomov[20], A.A. Bodalev[32], Y.V. Shoroxova[36], A.N. Leontyev[18], A.G. Asmolov[25], A.V. Yurevich[20], V.G. Leontyev[18], A. Maslou[21], J. Godfrua[10], G. Olport[24] va boshqalar).

S.L. Rubinshteyn o'zining ishlarida "Motiv muayyan harakatga ongli undovchi sifatida shaxsning o'zida bo'lgan holatlarni hisobga olishi, baholashi, xolatni taroziga solishi, o'zi oldida turgan maqsadni amalga oshirishi natijasida shakllanadi; ularga bo'lgan munosabatdan motiv o'ziga xos mazmunida tug'iladi, bu real hayotiy harakat uchun zarurdir", – deb yozadi [27].

O'z navbatida B.F. Lomov "Ijtimoiy sharoitlar va ijtimoiy muhit munosabatlaridan shaxsning motivasion sohasida qaysi motivlar hal qiluvchi bo'lishiga bog'liq bo'ladi", – deb ta'kidlaydi[20].

Nazariy xulosalar va mushoxadalardan ko'rinib turibdiki psixologiya fanini turli

sohalarida motiv va motivasiya muammosi faoliyat, xulq, muomala kategoriyalarini yuzaga kelishi, kechishi, rivojlanishi xususiyatlariga aslangan xolda tadqiqot qilingandir. Unga yondoshuv turli tuman bo'lishidan qat'iy nazar muayyan darajada umumiylik mavjudligini namoyish qildi. Buning negizida umum psixologik qonuniyat yotganligi to'g'risidagi masalani yaqqollashtirishga imkon tug'diradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonun. 2015-yil 4-sentabr O'RQ-394-son
2. Abu Ali ibn Sino - Tib konunlari. – T.: “Fan” nashriyoti,1-kitob, ikkinchi nashr, 1983-y, 316 b.
3. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 4-jild: Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar – T.: «Ma'naviyat», 2006.
4. Avloniy A. Turkiy Guliston yohud ahloq. – T.: «O'qituvchi» 1992-y. 160 b.
5. Асмолов А.Г. Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека. – М.: Смысл, Академия, 2007.– 3-е изд.– 528 с.
6. Axmedov B., Aminov A. Amir Temur o'gitlari.– T.:«Navro'z», 1992.64 b.
7. Бабушкин Г.Д. Формирование спортивной мотивации / Г.Д. Бабушкин, Е.Г. Бабушкин. Монография. - Омск, 2000. - 179 с.
8. Бандура А. Теория социального научений. /А. Бандура – СПб.: Изд-во «Евразия», 2000. – 320 с. (6).
9. Вилюнас В.К. Психологические механизмы мотивации / В.К. Вилюнас. -М., 1990.
10. Гогунев Е. Н. Психология физического воспитания и спорта: учеб. пособие для студентов высш. пед. учеб. заведений / Е. Н. Гогунев, Б. И. Мартуанов. – М.: Академия, 2004. – 224 с.
11. Гошек В. Состояние и деятельность спортсменов в связи с особенностями мотивации достижения / В. Гошек, Е.А. Калинин // Вопросы спортивной психологии. М., 1977.
12. Демин В.А. Методика исследования мотивации борцов высокого класса. Методическое пособие / В.А. Демин, Р.А. Пилоуан. М., 1973. - 40 с.
13. Джамгаров Т.Т. Психологическая систематика видов спорта и соревновательной деятельности. Спортивная психология в трудах отечественных психологов. Сост. И.П. Волков. – СПб.: Питер, 2002.
14. Дмитренкова Л.П. Сравнительная характеристика мотивов достижения в различных видах спорта // В кн.: Психологические аспекты подготовки спортсменов. Смоленск, 1980.
15. Ильин Е. П. Мотивация и мотивы [Текст] / Е. П. Ильин. – СПб. : Питер, 2008. – 512 с. – (Серия «Мастера психологии»).
16. Калинин Е.А. Экспериментально-психологическое исследование мотивации и тревожности у спортсменов. – В кн.: Вопросы спортивной психогигиены, вып. II, М.: изд. ВНИИФК, 1973.
17. Капрара Д. В. Психология личности / Дж. Капрара, Д. Сервон. - СПб. и др. ПИТЕР, 2003. - 640 с.

18. Леонтьев В.Г. Мотивация и психологические механизмы ее формирования / В.Г. Леонтьев. – Новосибирск: Новосибирский полиграфкомбинат, 2002. – 264 с.
19. Леонтьев Д.А. Современная психология мотивации. М.: Смысл, 2013. – 343 с.
20. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии / отв. ред. Я.М. Забродин, Е.В. Шолохова. – М.: Наука, 1984. – С.383-482.
21. Мерлин В.С. Психология индивидуальности: Избранные психологические труды. 2-е изд., стереот. 2009
22. Navoiy A. Alisher Navoiy (To'la asarlar to'plami) – 1 jild. –Т.: “G‘afur G‘ulom” / 2013 y. 804 b.
23. Нюттен, Ж. Мотивация, действие и перспектива будущего / Ж. Нюттен; Под ред. Д.А. Леонтьева. Текст. М.: Смісл, 2004. - 608 с.
24. Палайма Ю.Ю. Текущий результат игры и соревновательная деятельность спортсмена. – «Теор. И прак. физич. культ.», 1973, №8.
25. Пилюян Р.А., Гусаков А.П., Лопунов В.И. Юношеская и молодежная спортивная борьба резерв большого спорта. - Теория и практика физической культуры, 1980
26. Пуни А.Ц. О психологических особенностях соревновательной борьбы в спорте. – «Теор. и практ. физ. культ.» 1970, №6
27. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии / (1940; 1946; 1989; 2000) – СПб.: Питер, 2001. – 467с.
28. Рудик П.А. Психологические аспекты спортивной деятельности / П.А.Рудик // Спортивная психология в трудах отечественных специалистов / Под ред. Волкова И. П. - СПб.: Питер, 2002. С. 47-59.
29. Сагайдак С.С. Исследование мотивации спортивной деятельности / С.С. Сагайдак. Минск., 2001.
30. Sa'diy Sheroziy Guliston. – Т.: Yoshlar nashriyot uyi / 2018 y. 153 b.
31. Tesser A. (2004). Self-esteem. In M. B. Brewer & M. Hewstone (Eds.), *Emotion and motivation* (pp. 184-203). Blackwell Publishing.
32. Тропников В. И. Структура и динамика мотивов спортивной деятельности: Автореф. дис...канд. психол. наук. – Л.: 1989.
33. Уляева Л.Г. Динамика образа Я и мотивации в процессе занятий тае-квон-до: Автореф. дис. канд. психол. наук / Л.Г. Улуаева. – М.: 1999.
34. Harry J. Martin (1984) A Revised Measure of Approval Motivation and Its Relationship to Social Desirability, *Journal of Personality Assessment*, 48:5, 508-519, DOI: 10.1207/s15327752jpa4805\_10
35. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность [Текст]: [ учеб.пособие для вузов по направлению и специальности «Психология», «Клинич. психология»] / Хайнц Хекхаузен; науч. ред. пер. [с англ.] на рус. уз. Д. А. Леонтьев, Б. М. Величковский. – 2-е изд. – М.: Смысл; СПб. [и др.]: Питер: Питер принт, 2003. – 859 с. – (Серия «Мастера психологии»).
36. Шербаков Е. П. Методология психологии: Монография// Омск Издательство ОмГА 2020. – 180 с.
37. Shoumarov G‘.B. O‘zbekiston ta‘lim tizimida psixologik xizmat muammolari // Yangi turdagi O‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ta‘lim va tarbiyaning samadorligini oshirishning psixologik muammolari. Т.: 1998, 13-15 b.

38. Yusuf Xos Hojib Qutadg‘u bilig. – Т.: “Yangi Asr Avlodi nashriyoti” / 2019 у. 634 б.

39. Якобсон П.М. Психология чувств и мотивации/ Воронеж: МОДЕК; Москва: Институт практической психологии, 1998. – 304 с.

## **ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ДЕТЕЙ С МОТОРНОЙ АЛАЛИЕЙ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛИЗАЦИИ И СПОРТЕ**

**Ажимова З** - НГПИ им. Ажинияза. Преподаватель кафедры дошкольного воспитания и дефектологии

*Аннотация.* В статье говорится об особенностях социализации детей с речевыми нарушениями в социуме, методах устранения недостатков с помощью логопедических - коррекционных упражнений.

*Ключевые слова:* моторная алалия, психологические процессы, восприятие, внимание, социализация, фонематическое восприятие, моторика, мелкая моторика, коммуникативный компетентность.

Общение считается ключевым фактором в развитии личности ребенка и основным видом деятельности, направленной на самопознание через взаимодействие с другими людьми. Это мнение разделяли такие ученые как Л.С. Выготский, А.В. Запорожец, М.И. Лисина, С.Л. Рубинштейн, А.Г. Рузская, Е.О. Смирнова и другие. Очевидно, что развитие личности ребенка происходит благодаря усвоению культурного наследия человечества, которое передается ему взрослыми, занимающимися его воспитанием. Роль взрослого в этом процессе неопределима.

Развитие коммуникативной компетентности имеет особенно важное значение на этапе дошкольного детства, так как в этом возрасте социальная среда ребенка значительно расширяется, что позволяет ему взаимодействовать не только с близкими, но и с другими детьми. В дошкольном периоде особенно важно освоение вербальных средств общения и коммуникативных навыков, что способствует формированию коммуникативной компетентности. Сегодня все больше детей сталкиваются с нарушениями речевого развития, и в связи с этим меняется подход к специальному образованию. Коммуникативный подход становится ключевым методом помощи детям с недостатками речевого развития. Одним из сложных нарушений является алалия, которая требует особого внимания и коррекции.

Проблема формирования коммуникативной компетентности у детей с алалией остается мало изученной, и исследования в этой области продолжаются. Низкая коммуникативная компетентность у таких детей может привести к искажениям в развитии личности и затруднить их социализацию. Важно проводить исследования, направленные на выявление особенностей коммуникативной компетентности у детей с алалией и разработку моделей для их психолого-педагогической поддержки.

Изучение специфики коммуникативной компетентности дошкольников с моторной алалией приобретает особую значимость в связи с особенностями этого нарушения речевого развития (высоким риском искажения личностного развития, социальной дезадаптации, школьной неуспешности и т.д.), необходимостью оказания более ранней специальной помощи детям и поиском путей их социализации.

Дети, страдающие от речевых нарушений, включая алалию, имеют специфические особенности в своем психологическом развитии. У дошкольников с алалией прежде всего возникают проблемы с формированием высших психических функций, которые тесно связаны с речью: внимание, память, мышление. У этих детей снижается объем произвольного внимания, концентрация внимания неустойчива, а его распределение ограничено. Дети с алалией испытывают трудности с запоминанием последовательности задач и сложных инструкций. Их слухоречевая память также страдает. Словесно-логическое мышление у дошкольников с алалией развивается медленнее, им тяжело осуществлять анализ и синтез информации.

Таким образом, у дошкольников с алалией наблюдаются нарушения в различных областях: когнитивной, эмоционально-волевой, личностной.

В процессе обучения и воспитания одновременно с развитием произносительных навыков у детей и расширением лексического запаса необходимо проводить специально организованную психолого-педагогическую работу, направленную на формирование коммуникативных компетенций личности.

Коррекция коммуникативных навыков включает в себя три этапа:

- 1) стимулирование потребности ребенка в общении;
- 2) развитие коммуникативных умений у ребенка;
- 3) практическое обучение реальному общению.

Важно установить взаимодействие коррекционной работы, проводимой психологом и логопедом, с самостоятельной деятельностью детей в свободной игре, которая способствует осознанию необходимости приобретения навыков общения в повседневной жизни. Для достижения целей коррекции рекомендуется использовать инновационные методики, такие как психогимнастика, фонетические ритмы, арт-терапия, сенсорные образовательные технологии.

Также спорт помогает детям общаться не только со сверстниками, но и со взрослыми. Каждый ребенок интересуется каким-либо видом спорта, и этот вид спорта делает ребенка физически и психически здоровым. Во время физической активности ребенок общается, задает и получает ответы на интересующие его вопросы.

Психолого-педагогическое сопровождение детей с алалией позволяет повышать компетентность воспитателей и родителей по вопросам развития и воспитания ребёнка. Комплексная психолого-педагогическая работа способствует организации учебно-воспитательного процесса как вида личностно-ориентированного обучения, который позволяет раскрыть каждого ребёнка, страдающего алалией.

Для эффективной помощи детям с алалией в образовательном процессе необходимо изучить их индивидуальные особенности, включая интеллектуальный уровень, поведенческие особенности и эмоционально-волевую сферу. Коррекционная работа должна проводиться с учетом сотрудничества логопедов, педагогов, психологов и родителей, чтобы обеспечить комплексное воздействие на детей с алалией в течение всего времени пребывания в детском саду. Для младших дошкольников с алалией важно разработать индивидуальные программы коррекции, которые будут учитывать специфику их состояния. Психолого-педагогическое сопровождение должно включать в себя индивидуальные программы, направленные на преодоление трудностей, возникающих у детей с алалией. Работа, построенная таким образом, наиболее эффективна. Она ведется с дошкольниками с проблемами речевого развития, в

частности, страдающими алалией, так как позволяет реализовать работу с учётом специфических особенностей таких детей.

### **Исползованные литературы**

1. Волкова, Л.С. Логопедия: учебник для студ. дефектол. фак. пед. высш. учеб. заведений - 5-е изд., перераб. и доп. - М.: гуманитар. изд.центр ВЛАДОС: 2006
2. Ковшиков, В.А. Экспрессивная алалия и методы ее преодоления. 4-е издание, исправленное и дополненное. КАРО Санкт-Петербург:2018

## **HAMKORLIKDAGI PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISHNING AHAMIYATI**

**Allanazarova Sh.A** - Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali.

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy tadqiqot hamkorlikdagi pedagogik faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini hosil qiladigan texnologiyalarni izlab topish ehtiyojini shakllantirishning ahamiyati haqida so'z yuritadi.

**Kalit so'zlar:** Hamkorlik, pedagog, faoliyat, texnologiya, o'quvchi.

Hamkorlikdagi ta'lim jarayoni bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonining mazmuni zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayangan muntazam yangilanib borishi lozim. Buning uchun talabalar kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishlari, yangicha kasbiy tafakkurga ega bo'lishlari, hamkorlikdagi pedagogik faoliyatni tashkil etish metodlarini o'zlashtirishlari talab qilinadi. Sifatli oliy ta'limni tashkil etish mexanizmlari sifatida hamkorlikdagi pedagogik jarayonni tashkil etish texnologiyalarini tatbiq etish nazarda tutiladi. Buning uchun o'quv jarayonining yangi modullarini ishlab chiqish, unda bo'lajak o'qituvchining hamkorlikdagi pedagogik jarayonni tashkil etishga tayyorlashga ustuvor o'rin ajratish maqsadga muvofiq. Bo'lajak o'qituvchilarni hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishga tayyorlashga yo'naltirilgan o'quv moduli o'z tarkibiga quyidagilarni mujassamlashtirishi lozim:

a) bo'lajak o'qituvchilarni birgalikdagi faoliyatni oshirishga oid zamonaviy bilimlar, konsepsiyalar va texnologiyalarni tizimli tarzda singdirish;

b) bo'lajak o'qituvchilarning o'zlashtirgan kasbiy bilimlarini amaliy faoliyatlarida qo'llashlarini ta'minlovchi o'quv vaziyatlarini loyihalashtirish. Bo'lajak o'qituvchilarning hamkorlik pedagogikasiga oid fundamental bilimlarni o'zlashtirishlarini ta'minlash, bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirishlari uchun sharoit yaratish, ularda mustaqil bilim olish motivatsiyasini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida taqdim etiladigan bilimlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tafakkurini rivojlantirishni nazarda tutish alohida ahamiyatga ega. Buning uchun birinchi navbatda talabalarning kasbiy bilimlarga qiziqtirish nazarda tutiladi.

Shu bilan bir qatorda, ularda hamkorlikdagi pedagogik faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini hosil qiladigan texnologiyalarni izlab topish ehtiyojini shakllantirish talab etiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi dunyodagi barcha ta'lim tizimlarida murojaat qilinib, unda o'qituvchi-o'quvchi hamkorligiga ustuvor o'rin ajratilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari doirasida o'qituvchi hamda o'quvchi munosabatlarini

rivojlantirish nazarda tutilgan. Pedagogika hamda psixologiyaga oid zamonaviy yondashuvlarda hamkorlikdagi ta'lim jarayonini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu nuqtai nazardan yondashgandan ko'ra bo'lajak o'qituvchilarni hamkorlikdagi ta'lim nazariyasi bilan qurollantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchilar birinchi navbatda hamkorlikdagi pedagogik jarayonni tashkil etish tajribasiga ega bo'lishlari muhim. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilar ta'lim jarayonini gumanizm prinsipi asosida tashkil etish usullarini puxta o'zlashtirishlari talab etiladi.

Oliy ta'lim jarayonini insonparavarlik prinsipi asosida tashkil etish uchun talabalarning kasbiy qiziqishlari va ehtiyojlarini har tomonlama chuqur o'zlashtirish talab etiladi. Shundagina bo'lajak o'qituvchilar o'qituvchi-o'quvchining o'zaro hamkorlikka asoslangan munosabatlariga oid nazariy bilimlarini o'zlashtirish motivlariga ega bo'ladilar. Bo'lajak o'qituvchilarni hamkorlikdagi o'quv jarayonini tashkil etishga tayyorlashda nafaqat nazariy bilimlar balki amaliy tajribalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Дьяченко В.К. Сотрудничество в обучении: О коллективном способе учебной работы: Кн. для учителя. – М.: Просвещение, 1991. – 192 с.
2. Матросова Л.Н. Дидактическая игра в процессе подготовки будущего учителя к профессиональной деятельности: Дис. канд. пед. наук. – М., 1994. – 177 с.

## **ФИЗИЧЕСКОЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СПОРТСМЕНОВ В СТАРШИХ КЛАССОВ**

**Ахмедова Мухаббат Ахмедовна** - старший преподаватель Нукусский филиал Института переподготовки и повышения квалификаций специалистов физической культуре и спорта.

**Аннотация.** В этой статье написано значения спортивной деятельности старших классов цели посещения уроков физкультуры физического воспитания. Интерес к физкультуре обусловлен, в частности, тем, что направленность и требования этих занятий в большей степени соответствуют ценностным ориентациям.

**Ключевые слова.** Мотивация к спорту, старших класс, физкультура

**Annotation.** This article describes the importance of high school sports activities, the goals of attending physical education lessons, and physical education. The interest in physical education is due, in particular, to the fact that the focus and requirements of these activities are more consistent with value orientations.

**Keywords.** Motivation for sports, high school, physical education.

Активность человека определяется многими климатическими и социальными факторами. Однако, несмотря на это, можно констатировать, что самая большая потребность в двигательной активности у младших школьников и что у мальчиков эта потребность выражена больше, чем у девочек. Абсолютное большинство школьников заявляют, что их интересует физическая культура. Даже в старших классах число таких учащихся достигает 80-90%. Большинство старшеклассников систематически смотрят телепередачи на спортивные темы, многие регулярно посещают спортивные

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi PQ 336-sonli «Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida »gi qarori.
2. Kerimov F.A – Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati Toshkent 2018 y. -118-120 B.
3. Tastanov N.A – Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati Toshkent 2017 y. – B 78-80.
4. Tastanov N.A –Yunon-rum kurashi nazariyasi va uslubiyati Toshkent 2014 y. – B 59-60.
5. Toshturdiyev Sh.X. Velosipedchilarning kuch sifatini og‘ir atletika vositalari orqali rivojlantirish uslubiyati/ Fan sportga ilimiy nazariy jurnal. 2020 y 1-son.
6. Bakhodirovich, J. U. (2024). The methodology of developing the strength qualities of qualified young freestyle wrestlers.

## **BADIIY GIMNASTIKACHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA YUKLAMALARNING AHAMIYATI**

**Eshbaev A.J.**– dotsent, Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash instituti Nukus filiali “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati” kafedrası.

**Annotatsiya:** Gimnastikachilarning egiluvchanligini rivojlantirish uchun mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan. Badiiy gimnastikada dastlabki tayyorgarlik bosqichida egiluvchanlikni rivojlantirish muhim qismlardan biridir. Yegiluvchanlik muhim psixofizik sifat bo‘lib, u tezlik, kuch, chidamlilik, epchillik bilan birgalikda insonning morfofunktsional biologik xususiyatlarida o‘z ta’rifini topadi.

**Аннотация:** Разработано комплекс упражнение для развитие гибкости гимнасток. В Художественной гимнастике на этапе начальной подготовки один из важной частью является развитие гибкости. Гибкость является важным психофизическим качеством, которое вместе с быстротой, силой, выносливостью, ловкостью находит определение в морфофункциональных биологических особенностях человека.

**Kalit so‘zlar:** Badiiy gimnastika, o‘quv-mashq jarayoni, boshlang‘ich tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik.

**Ключевые слова:** Художественная гимнастика, учебно-тренировочный процесс, начальной подготовки, специальной физической подготовки.

Yosh badiiy gimnastikachilarni jismoniy tayyorlash sport mashg‘ulotlarining eng muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanib, organizmni har tomonlama rivojlantirish, sog‘liqni mustahkamlash, jismoniy qobiliyatlarini takomillashtirish va tayyorgarlikning barcha boshqa turlari uchun mustahkam funksional baza yaratishga yo‘naltirilgan jarayon sifatida tushuniladi. Badiiy gimnastika sport turida jismoniy tayyorgarlikga yuksak talablar qo‘yiladi. Buni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

- Sportdagi yutuqlarning o‘sib borishi har doim sportchidan jismoniy qobiliyatlar rivojining yangi darajasini talab qiladi;
- Jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasi mashg‘ulot va musobaqa yuklamalarini oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Ma’lumki, gimnastikachilarning moslashuvchanligi yuqori natijalarga erishishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, mashg‘ulotlarda gimnastikachilarning mushaklari nafaqat yuklamalarga moslashishi, balki yuqori tezlikka ega bo‘lishi uchun to‘g‘ri tanlangan o‘quv yuklamasidan foydalanish tavsiya etiladi. Gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun haftada uch marta mashg‘ulotlarni o‘tkazishni taklif qildik.

Qo‘llaniladigan vositalarining ta’sir ko‘rsatish xususiyati va yo‘nalishiga ko‘ra yosh badiiy gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligini umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT), yordamchi hamda maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) guruhlariga bo‘lib o‘rganiladi. Yosh badiiy gimnastikachilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi yuksak natijalarga erishish uchun poydevor, zarur asos hisoblanadi. U quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan.

- Yosh badiiy gimnastikachilar organizmining funksional imkoniyatlarini oshirish;
- Jismoniy sifatlari – kuch, tezkorlik, chidamlilik, epchillik va egiluvchanlikni rivojlantirish;
- Yosh badiiy gimnastikachilar organizmining jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarini yo‘q qilish.

Yosh badiiy gimnastikachilarning yordamchi jismoniy tayyorgarligi maxsus jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan funksional asosni yuzaga keltirishga mo‘ljallanadi. U maxsus yo‘nalishga ega bo‘lib, quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- Organizimning yuqori darajadagi maxsus yuklamalarga chidamliligi hamda egiluvchanlik qobiliyatini takomillashtirish;

- Tiklanish jarayonlarini shiddatining ortishi. Yosh sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi tanlangan sport turi bo‘yicha musobaqa faoliyatining xususiyatlari qo‘yadigan talablarga qat’iy rioya qilingan holda jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Yosh badiiy gimnastikachilarni maxsus jismoniy tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etadi:

- tanlangan sport turi uchun xos bo‘lgan jismoniy qobiliyatlarni takomillashtirish;
- tanlangan sport turi bo‘yicha muvaffaqiyatli texnik – taktik takomillashuv uchun zarur bo‘lgan harakat ko‘nikmalarini chuqurlashtirgan holda rivojlantirish;

- ixtisoslashtirilgan mashqlarni bajarishda ko‘proq qatnashadigan alohida mushak guruhlarini tanlab rivojlantirish. Yosh badiiy gimnastikachilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi harakat ko‘nikmalari tizimidagi eng muhim harakat sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Shuning uchun, maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy vositalari sifatida musobaqa mashqlaridan foydalaniladi hamda ularni sportchi organizmiga ta’sirini kuchaytiruvchi turli murakkablashtiruvchi unsurlar bilan birgalikda qo‘llaniladi.

Jismoniy tayyorgarlikning barcha turlari muayyan o‘qshashliklarga ega. Yosh badiiy gimnastikachilarni jismoniy tayyorgarligi sport ixtisosligi bilan chambarchas bog‘liq. Mashq jarayonida jismoniy tayyorgarlikning biror turiga etarlicha baho bermaslik oqir-oqibat sport mahoratining kuchayishiga to‘sqinlik qiladi. Yosh badiiy gimnastikachilarni mashg‘ulotlarida umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari nisbatiga qo‘yiladigan vazifalar, sportchilarning yoshi, malakasi, ularning alohida xususiyatlari, mashg‘ulot jarayonining bosqich va davrlari, organizmning ayni paytdagi holatidan kelib chiqib o‘zgartiriladi.

Bundan tashqari yosh badiiy gimnastikachilarning jismoniy madaniyatini shakllantirish ham muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, yosh sportchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirish jarayonida shug‘ullanuvchilar harakatlarni va ular bilan bog‘liq bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmay, o‘z jismoniy qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Hozirgi paytda sportchilarning harakat imkoniyatlarini tavsiflash uchun “jismoniy qobiliyatlar” va “jismoniy sifatlar” atamasidan foydalaniladi. Bu tushunchalar ma’lum ma’noda o‘qshash bo‘lsalar-da, lekin bir xil emas. Jismoniy qobiliyatlar, yosh sportchining u yoki bu mushak faoliyati talablariga javob beradigan va uning samarali bajarilishini ta’minlaydigan ruhiy-fiziologik hamda morfologik xususiyatlari majmuasidir.

Jismoniy tarbiya va sportda sportchilar qobiliyatlarining sifatiga xos xususiyatlar “kuchli”, “tezkor”, “chaqqon”, “egiluvchan”, “chidamli” degan iboralar o‘z aksini topgan. Hozirgi vaqtda jismoniy qobiliyatlarni besh asosiy turga ajratish qabul qilingan: kuch, tezkorlik va muvofiqlashtirish qobiliyatlari, chidamkorlik va egiluvchanlik. Ularning har biri harakat faoliyatining har xil turlarida xilma-xil shakllarida namoyon bo‘ladi. Hozirda jismoniy qobiliyatlar rivojlanishining asosiy qonuniyatlari ham mavjud:

1. Harakat – jismoniy qobiliyatlarning etakchi omili.
2. Qobiliyatlar rivojining harakat faoliyati rejimiga bog‘liqligi.
3. Jismoniy qobiliyatlar rivojlanishining bosqichliligi.

4. Qobiliyatlar rivojining notekis va geteroxronligi (turli vaqtga mansubligi).
5. Qobiliyatlar ko'rsatkichlarining qaytariluvchanligi.
6. Jismoniy qobiliyatlarning ko'chishi.
7. Harakat malakalari va jismoniy qobiliyatlarning o'zaro aloqasi va birligi.

Shu tufayli, yosh badiiy gimnastikachilarning u yoki bu harakat faoliyatini qay darajada o'zlashtirib olganiga qarab tegishli jismoniy qobiliyatlarni yuzaga chiqarish darajasi ham o'zgaradi. Shuning uchun, jismoniy tarbiya sohasida pedagogik jarayonni olib boruvchi kishi uni faqat ta'lim va tarbiya tamoyillariga emas, jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish tamoyillariga muvofiq ravishda qurishi kerak bo'ladi. Bunda shuni hisobga olish lozimki, jismoniy mashqlarga o'rgatish tamoyillari badiiy gimnastikachilarda yagona talablarni o'zida aks ettiradi: ularda har qanday pedagogik jarayon ongillik, faollik va boshqa tamoyillar asosida qurilishi zarur. Ammo mazkur tamoyillarning aniq ro'yobga chiqarilishi hal etilgan vazifalarga muvofiq bo'lishi shart.

Shunday qilib, maksimal yuklamaning haqiqiy ko'rsatkichlarini shug'ullanuvchilarni muayyan jismoniy holatiga nisbatangina aniqlash mumkin. Albatta, jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishda maksimal yuklamalarni shug'ullanuvchilarda tegishli tayyorgarlik mavjud bo'lganda, ularning yoshini, alohida xususiyatlarini, shuningdek, yuklamaning ham o'ziga xos jihatlarni e'tiborga olgan, boshqa tamoyillariga rioya qilgan holda qo'llash zarur. Jismoniy yuklamaning kattaligi uning hajmi va shiddati bilan tavsiflanadi. Shunga ko'ra, yuklama ish hajmini aniq taqsimlash joiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Барчуков, И.С. Физическая культура и спорт: Методология, теория, практика / И.С. Барчуков// Москва: Академия, 2009.
2. Евсеев, Ю.И. Физическая культура/ Ю.И. Евсеев// Издание 7-е, доп. и испр. – Ростов на Дону: Феникс, 2011.
3. Туманян, Г.С. Здоровый образ жизни и физическое совершенствование: учебное пособие для студентов вузов/Г.С.Туманян// Москва: Академия
4. Eshtaev A.K., Umarov M.N., Ishtaev D.R., Toychiev Z.O., Eshtaev S.A., Paxrudinova N.Yu. Gimnastika nazariyasi va uslubiyati. (Darslik). Tashkent «Barkamol fayzmedia» 2017.
5. Матвеев Л.Г. Теория и методика физической культуры/Л.Г.Матвеев// Москва: Физкультура и спорт, 1991.

### **MALAKALI FUTBOLCHILARNI KOMPLEKS NAZORAT QILISH USULLARI**

**Jaxbarov Abulfayzxon Sobirxon o'g'li** - Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada futbolchilarning raqobatbardoshlik va mashg'ulot jarayoni va jismoniy tayyorgarligini kompleks nazorat qilish masalalari ko'rib chiqilgan. Xususan, futbolda pedagogik nazorat va tayyorgarlikni rejalashtirishning nazariy va uslubiy asoslari ochib berilgan. Maqolada tezkor nazoratning ishonchli va informatsion testlari to'plami taqdim etilgan, ularni bevosita mashq paytida o'lchash usuli ishlab chiqilgan.

**Kalit soʻzlar:** nazorat turlari, raqobatbardoshlik, kompleks nazorat, mashgʻulot jarayoni, pedagogik nazorat, testlar

**Kirish.** Yuqori malakali futbolchilarni mashgʻulot va nazorat oʻyinlarini pedagogik nazorat qilish va yuzaga kelgan muammoni qisqa muddatda bartaraf etish zamonaviy futbolda professional jamoalarga juda muhim omillardan sanaladi. Ushbu omillarni hisobga olib mashgʻulot va nazorat oʻyinlarini boshqarish, operativ, joriy va bosqich nazoratlarni hamda oʻquv dasturlarini tezkor rejalashtirish jarayonida amalga oshiriladi. Koʻrinib turibdiki, ulardan eng muhimi oʻquv mashqlari va musobaqalarining miqdoriy va sifat koʻrsatkichlarini oʻz ichiga olgan operativ rejalardir. Operatsion rejalashtirishning samaradorligi operativ nazorat natijalari bilan belgilanadi, innovatsion texnologiyalarning ishonchligi esa foydalanilgan testlarning shaffof ekanligi va axborot mazmuniga va natijalar aniq ekanligini taʼminlaydi. Hozirgi kunda futbol amaliyotida bosqichli va qisman joriy nazorat qilish tizimi ilmiy asoslangan.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Zamonaviy diagnostika usullarining afzalligi anʼanaviy usullarga nisbatan aniq. Yuqori darajadagi futbolchilarini sinovdan oʻtkazish shuni koʻrsatdiki, ushbu test usullaridan foydalangan holda, ularning funksional holatini operativ nazorat qilish orqali, murabbiy va sportchilarga keyingi mashgʻulotlar uchun tavsiyalar berish mumkin. Bu ham aniq chuqur kompleks nazorat va bir vaqtning oʻzida tahlil qilish uchun muhim boʻlgan koʻp sonli koʻrsatkichlarni olish sportchilarning holatidagi muayyan pasayishni obyektiv asoslash va sport mahoratining yanada oʻsishini prognoz qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, kompleks nazorat jarayonida olingan koʻp sonli koʻrsatkichlar ularni izohlashni qiyinlashtirishi mumkinligini hisobga olish kerak. Baʼzan murabbiy uchun diagnostika sohasidagi malakali mutaxassislar yordamisiz buni mustaqil ravishda amalga oshirish qiyin.[1]

**Mashgʻulot effektlari, nazorat va rejalashtirish holati oʻrtasidagi munosabatlar (M. A. Godik [2])**

*1-jadval*

	<b>Sportchining holati</b>	<b>Mashgʻulot effekti</b>	<b>Nazorat turlari</b>	<b>Rejalashtirish turlari</b>	<b>Oʻtkazish</b>
	Operatsion	Tezkor mashgʻulot effekti (TME)	Operatsion	Operatsion	Mashgʻulotda
	Joriy	Qoldirilgan mashgʻulot effekti (QME)	Joriy	Joriy	Mikrosiklda
	Barqaror (doimiy)	Kumulyativ mashgʻulot effekti (KME)	Bosqichli	Bosqichli	Davriy bosqichlarda

Kompleks pedagogik nazorat (KPN)- bu sportchilar tayyorgarligining turli jihatlarini, shuningdek, qoʻllaniladigan oʻquv vositalari, usullari va oʻquv yuklamalari parametrlarining samaradorligi va yetarilishini obyektiv baholashni taʼminlaydigan chora-tadbirlar tizimi. Yuqori toifali sportchilarni tayyorlashda kompleks pedagogik nazoratning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:[3]

a) ta'sir etuvchi o'quv mashg'ulot omillari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va sportchilarning tanasida sodir bo'ladigan o'zgarishlar; trenerlarga tegishli va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish.

b) sport mashg'ulotlarini rejalashtirish va tuzatishni amalga oshirish.

O'quv jarayoni va raqobat faoliyatini to'g'rilash maqsadida kompleks pedagogik nazorat doirasida quyidagi ma'lumotlarni muntazam ravishda taqdim etish zarurati belgilandi:

- mashg'ulotlar paytida sportchilarning operatsion holati to'g'risida yoki davomida: yuklamaning (ta'sirning) intensivligini nazorat qilish bo'yicha reabilitatsiya paytida;

- yuklama miqdorini nazorat qilish uchun sportchilarning hozirgi holati haqida mikrosikllari;

Umumiy va bosqichli o'quv vazifalari kontekstida o'quv jarayonining yo'nalishini bosqichma-bosqich tuzatish uchun subyektlarning bosqichli holati to'g'risida; uchun raqobat faoliyatining samaradorligi va parametrlari haqida asosiy musobaqalar vaqtida sportchilarning holatini tezda tuzatish;

- o'quv yuklamalarining kattaligi haqida.

Biz tadqiqotimizda **“Catapult Playr”** zamonaviy qurilmasidan keng foydalandik.

Qurilma quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Sportchining har bir o'yinda bosib o'tgan umumiy masofasi

Sprint masofasi

Eng yuqori tezligi

Mashg'ulot intensivligi

Mashg'ulot yuklamasi kabi statistik ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalari va ularni muhokama qilish.** Futbolchilarning o'yinlardagi harakatlarini pedagogik kuzatishlar **“Wyscout”** tizimi yordamida amalga oshirildi.

To'p uzatishlar soni va aniqligi, dribblinglar, raqibdan to'pga zarba berish, darvoza tomon zarbalar, havoda to'p uchun kurashlar, to'pni ushlab turishlar, to'plar va boshqalar qayd etildi. Texnik va taktik harakatlarni bajarish uchun aniqlik koeffitsiyenti aniq bajarilgan texnikalarning ularning umumiy soniga nisbati bilan hisoblab chiqilgan. Raqobat faolligini tezkor nazorat qilish jamoalarning 58 ta o'yinida amalga oshirildi, ular haqida ma'lumot jadvalda keltirilgan.

### Pedagogik kuzatishlar o'tkazilgan jamoalarning xususiyatlari

2-jadval

Jamoalar nomi	Musobaqa yili	O'yinlar soni
“Paxtakor”, Toshkent	2021-2022 yillar	10
“Neftchi”, Farg'ona	2022-2023 yillar	22
“Navbahor” Namangan	2021-2022 yillar	12

“ Andion ”  
O‘zbekiston U -23  
terma jamoasi

2023-2023 yillar  
2022-2023 yillar

8  
6

Pedagogik kuzatishlar O‘zbekiston chempionati super liga jamoalarida texnik taktik harakatlar (TTH) tahlilni “Catapult Playr” zamonaviy qurilmasidan hamda Wyscout ” tizimi yordamida o‘tkazdik.

S.M.Vaitsexovski tomonidan taklif qilingan parallel rejalashtirish g‘oyasiga asoslanadi. Ushbu g‘oyaning mohiyati shundan iboratki, mashqlar yuklamalarini operativ tahlil qilish bilan bir vaqtda uni kelajakdagi mikrosikllar jamoalarida amalga oshirish rejasi ishlab chiqiladi. Masalan , mikrosiklning birinchi kunida tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot davomida futbolchilar bir nechta mashg‘ulotlarni bajarishdi. Ulardan ikkitasi uchun jismoniy (mashqning faol va passiv fazalarining davomiyligi, harakat uzunligi) va fiziologik (yurak urishi, texnik va taktik ma’lumotlarning hajmi) yuklama ko‘rsatkichlari qayd etilgan. Yuklamaning jismoniy tarkibiy qismlari va fiziologik mezonlarni taqqoslash mashqlar yo‘nalishi haqida xulosa chiqarish imkonini berdi. Agar u berilganiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, unda mashq o‘zgarishsiz keyingi sikl uchun rejalashtirilgan edi. Agar yo‘q bo‘lsa, unda mashqning jismoniy komponentlari o‘zgartirildi.

Shu asosda, ularning tarkibiy qismlariga o‘zgartirishlar kiritilgan holda, mashg‘ulotlar yuklamalariga tuzatishlar kiritildi, bu esa ularni keyinchalik futbolchilarning holatiga mos ravishda bajarishga imkon berdi. Xususan O‘zbekiston chempionati Superligasi “ Neftchi ” (Farg‘ona) jamoasi futbolchilarida o‘tkazildi

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jaxbarov A.S. Futbolchilarning tayyorgarligini kompleks nazorat qilish asoslari. <https://jtsiti.uz>, Respublika anjuman (2024) 414-417 bet
2. Годик М. А., Власов А. Е., Годик В. А. Профессиональный футбольный потенциал России с позиций 2018 FIFA WORLD CUP в рамках системы анализа пространственных данных //Вестник спортивной науки.–2011. – №. 5. – С. 9-12.
3. Талицджанов А. И. Комплексный контроль и планирование подготовки футболистов. – 2023.152 bet

## KURASHCHILAR MASHG‘ULOTLARI JARAYONIDA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK MASALALARI

**Rasulov Z.P.**, Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakastnt oshirish instituti prorektori

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kurashchilarning sport bilan shug‘ullanish davrida boshlang‘ich, asosiy va yakuniy qismlarini to‘g‘ri hamda mukammal ishlab chiqish keltirib o‘tilgan

**Аннотация:** в данной статье представлено правильное и совершенное развитие начальной, основной и конечной частей борцов во время занятий спортом.

**Kalit soʻzlar:** kurash, sport, texnik, taktik, metod, mahsus, tayyorgarlik, harakat, mashgʻulot jarayonlari, maksimal kuch, murabbiy.

**Ключевые слова:** борьба, спортивная, техническая, тактическая, методика, специфика, подготовка, движение, тренировочный процесс, максимальная сила, тренер.

Maʼlumki, kurashning texnik tayyorgarligi sportchi tomonidan yuqori sport natijalariga erishishni taʼminlovchi harakatlar tizimining egallaganlik darajasi bilan tavsiflanadi.

Amaliyotda kurashchining umumiy va maxsus texnik tayyorgarligiga boʻlinadi. Umumiy texnik tayyorgarlik yordamchi sport turlaridagi har xil harakat malakalari hamda koʻnikmalarini egallashga, maxsus texnik tayyorgarlik sport kurashida texnik mahoratga erishishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Kurashda texnik tayyorgarlik bir qator murakkab vazifalarni hal etishga yoʻnaltirilgan:

- maksimal kuchlanishdan foydalanish samaradorligini oshirish;
- ish kuchlanishini tejash;
- musobaqa faoliyatini oʻzgaruvchan holat sharoitlarida harakatlanish tezligi, aniqligini oshirish.

Sport texnikasini takomillashtirish kurashchilarning koʻp yillik tayyorgarligi davomida amalga oshiriladi hamda u tanlangan sport turida texnik mahoratni oshirishga qaratiladi.

Texnik mahorat deganda keskin sport kurashi sharoitlarida eng oqilona harakat texnikasini mukammal egallash tushuniladi.

Amaliyotda texnik mahoratni takomillashtirish quyidagi uchta bosqichi ajratiladi;

1. Izlanish.
2. Barqarorlashtirish.
3. Moslashishni takomillashtirish.

Birinchi bosqichda texnik tayyorgarlik musobaqa harakatlarining yangi texnikasini shakllantirishga, uni amaliyotda egallash shart-sharoitlarini yaxshilashga, musobaqa harakatlari tizimiga kiruvchi ayrim harakatlarni oʻrganishga (yoki qayta oʻrganishga) qaratilgan.

Ikkinchi bosqichda texnik tayyorgarlik musobaqa harakatlarining butun malakalarini chuqur oʻzlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan.

Uchinchi bosqichda texnik tayyorgarlik shakllangan malakalarni takomillashtirish, ularning asosiy musobaqalar sharoitlariga mos holda maqsadga muvofiq variantlilik, barqarorligi, ishonchliligi chegaralarini kengaytirishga qaratilgan.

Har bir texnik tayyorgarlik bosqichining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Kurash texnikasi asosini tashkil etadigan harakat malakalarining yuqori barqarorligi hamda oqilona variantivligiga erishish, musobaqa sharoitlarida ularning samaradorligini oshirish.

➤ Harakat malakalarini qisman qayta qurish, musobaqa faoliyati talablarini hisobga olgan holda usullarning ayrim qismlarini takomillashtirish.

Birinchi vazifani hal etish uchun tashqi vaziyatni murakkablashtirish uslubi, organizmning turli holatlarida mashqlarni bajarish uslubi qo'llaniladi. Ikkinchi vazifani hal etish uchun - texnik harakatlarni bajarish sharoitlarini engillashtirish uslubi, birga ta'sir ko'rsatish uslubi qo'llaniladi.

Texnik usullarni bajarishda tashqi vaziyatni murakkablashtirish uslubi quyidagi bir qator usullarda amalga oshiriladi:

➤ shartli raqib qarshiligining uslubiy usuli sportchiga texnik harakatni bajarish tuzilmasi va maromini takomillashtirishga, barqarorlik va natijalilikka tezroq erishishga yordam beradi.

➤ qiyin dastlabki holatlar va tayyorgarlik harakatlarining uslubiy usuli. Masalan, egilib tashlashni takomillashtirishda ushlab olish joyi va kurashchilar o'rtasidagi masofani o'zgartirish lozim.

➤ usullarni bajarish uchun joyni cheklash uslubi malakani takomillashtirishda mo'ljallangan shartlarini murakkablashtirishga yordam beradi. Kurashda, kichraytirilgan o'lchamdagi gilamlar qo'llaniladi.

Texnik harakatlarning bajarilishini qiyinlashtiruvchi sportchi organizmining turli holatlarida mashqlarni bajarish uslubi ham turli xildagi usullarda amalga oshiriladi:

Harakatni ancha toliqqan holda bajarishning uslubiy usuli. Bu holda katta hajm va shiddatdagi jismoniy yuklamadan keyin sportchiga texnikani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar taklif qilinadi.

Nazorat o'quv-trenirovka bellashuvlari o'tkazilgandan so'ng katta emotsional zo'riqish holatida harakatlarni bajarishning uslubiy usuli.

Vaqtı-vaqtı bilan ko'rishni ta'qiqlash yoki cheklashning uslubiy usuli harakatlanish malakasining retseptorli-analizatorli tarkibiga tanlab ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Musobaqa vaziyatida ayrim usullar yoki harakatlarni majburan bajarish usuli malakani takomillashtirish jarayonida kurashchi faolligini rag'batlantiradi. O'quv-trenirovka bellashuvlarida kurashchi himoyaning texnik usullari, yoki aksincha, hujum usullariga ko'proq diqqatni to'plashga ko'rsatma oladi.

Texnik harakatlarni bajarish shartlarini engillashtirish uslubi bir qator uslubiy usullardan iborat:

➤ harakat elementini ajratish uslubiy usuli. Masalan, erkin kurashda - beldan yuqori qismdan ushlab olishni amalga oshirish.

➤ mushak zo'riqishini pasaytirish uslubiy usuli kurashchiga harakatlanish malakasidagi ayrim harakatlarga yanada aniq tuzatishlarni kiritishga yordam beradi. Texnik harakatlarni takomillashtirish uchun kurashchiga ancha engil vazn toifasidagi raqib tanlanadi.

➤ tezkor axborot uslubiy usuli zarur harakat kengligi, maromi, sura'tini tez egallab olishga yordam beradi, bajariladigan harakatni anglash jarayonini faollashtiradi.

Texnik harakat to'g'risidagi tezkor axborot uchun videokamera va videomagnitofondan foydalanish qulaydir.

Birga ta'sir ko'rsatish uslubi sport trenirovkasida o'zaro birgalikda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va harakat malakalarini takomillashtirishga asoslangan uslubiy usullar yordamida amalga oshiriladi. Bu holda usullarni takomillashtirishda kurashchiga ancha og'ir vazn toifasidagi raqib tanlanadi. Kurash texnikasi - bu musobaqa qoidalarida ruxsat etiladigan usullar, qarshi usullar va himoyalanişlar yig'indisidir.

Usullar - bu maqsadga yo'naltirilgan hujum harakatlari bo'lib, ular yordamida kurashchi raqibidan ustunlikka erishadi. Har bir usul ikki qismdan iborat. Birinchi qism - usul qo'llash uchun ushlab olish. Ushlab olishlar yuqoridan, pastdan, orqadan, oldindan, yon tomondan va boshqalarga ushlab olishlarga bo'linadi. Ushlash usulni muvaffaqiyatli bajarishda katta ahamiyatga ega. Butun usullarni bajarish sifati ushlab olishning qay darajada oqilona amalga oshirilganligiga bog'liq. Ikkinchi qismda turli xildagi harakatlar: tik turishda - o'tkazishlar, tashlashlar, ag'darishlar; parterda - o'girishlar va parterda tashlashlar bo'lishi mumkin.

Erkin kurash, sambo, dzyudo va kurashda usullarni amalga oshirish paytida bir vaqtning o'zida oyoqlar bilan turli harakatlar ham bajariladi, ya'ni bular - chalishlar, qoqishlar, ilishlar, oldindan ilib otishlar, chirmashlar, orqadan ilib otishlar. Bu harakatlarning ko'pchiligi orqadan, oldindan, yondan, ichkaridan, tashqaridan bajarilishi mumkin.

Bir xildagi ushlash bilan bir qator harakatlarni bajarish mumkin va, aksincha, bir xil harakatning o'zi turli ushlashlar bilan bajarilishi mumkin. Masalan, qo'ldan va gavdadan ushlab tashlashni, zarba bilan ag'darishni amalga oshirish mumkin. Lekin raqibni egilib qo'l, gavda, qo'l va bo'yindan ushlab tashlash ham mumkin.

Kurashchi har qanday usulni hujum va qarshi hujum uchun qo'llashi mumkin. Usul yoki uning bir qismini aldatchi harakat sifatida qo'llab, kurashchi haqiqiy niyatidan raqib diqqatini chalg'itish va boshqa usul bilan hujumni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni tayyorlashi mumkin.

Qarshi usullar - bu raqib hujumiga javob tariqasida bajariladigan maqsadli harakatlar bo'lib, ular yordamida kurashchi raqibi ustidan ustunlikka erishadi.

Qarshi usullar murakkab texnik harakatlarga kiradi. Qarshi hujum uyushtirayotgan kurashchi bir zumda to'g'ri qaror chiqarishi va raqibi usulni amalga oshirishga ulgurmasligi uchun o'z harakatlarini hujum qilayotgan raqib harakatlari bilan aniq moslashtirishi lozim.

Himoyalanişlar - bu raqibning usullarni (qarshi usullarni) bajarishiga to'sqinlik qiluvchi maqsadli harakatlardir.

Himoyalanişlar dastlabki va bevosita himoyalanişlarga ajratiladi. Dastlabki himoyalaniş oldindan, ya'ni raqib usulni amalga oshirishdan avval bajariladi.

Bevosita himoyalani sh raqib hujumini to'xtatishga qaratilgan. Bunday himoyalani sh samaradorligi uning o'z vaqtida bajarilishiga bog'liq. Bevosita himoyalani sh usul boshida, usulni bajarish davomida yoki usulni bajarish oxirida amalga oshirilishi mumkin.

Hamma texnik harakatlar kurashchilar tomonidan turli holatlardan turib bajariladi. Asosiy holatlar quyidagilar: tik turish, parter va ko'prik.

Tik turish - bu kurashchining holati bo'lib, unda u oyoqlarda tik turadi. O'ng, chap va yalpi tik turishlar ajratiladi. Ularning har biri, o'z navbatida, baland, o'rta va past bo'lishi mumkin. Tik turishda kurashish yaqin, o'rta va uzoq masofalarda olib borilishi mumkin.

Parter - bu kurashchining dastlabki holati bo'lib, u tizzalarida turadi. Bunda tekis yozilgan qo'llarning kaftlari bilan gilamga tayanib turiladi, qo'llar tizzalardan 20-25 sm. uzoqlikda joylashadi.

Parterda baland holat va past holat farqlanadi. Baland holat - bu kurashchining parterdagi dastlabki holati, past holat esa - bu kurashchining tizzalarda turib, bilaklar bilan gilamga tayanish holatidir.

Parterda kurashish paytida kurashchilardan biri pastda, ikkinchisi yuqorida bo'ladi. Parterda yuqoridagi holatda turgan kurashchi kurash boshlanishidan oldin istagan dastlabki holatni egallashi mumkin. Faqatgina qo'l kaftlari pastdagi kurashchining elkasida turishi lozim.

Ko'prik - bu kurashchining quyidagi holati bo'lib, ya'ni bunda u, orqaga egilib, oyoq kaftlari (ular taxminan elka kengligida yozilgan) va bosh (istagan qismi) bilan gilamga tayanadi.

Kurashchi ushbu holatga kuragini gilamga tekkizmaslik uchun o'tadi.

Erkin va yunon-rum kurashida ko'prik bir holatda qator hujum hamda qarshi hujum harakatlarini bajarishda asosiy elementlardan biri hisoblanadi.

Kurashchining texnik harakatlari zahirasi qanchalik boy bo'lsa, ularni qanchalik katta mahorat bilan qo'llay bilsa, uning texnik mahorati shunchalik yuqori bo'ladi.

Kurash texnikasi kurashchi mahoratining asosi hisoblanadi va ko'p jihatdan uning imkoniyatlarini belgilab beradi. Kurashda o'nlab usullar va ularning variantlari mavjud. Biroq bu kurashchi ularning hammasini mukammal bilishi lozim degani emas.

Sportchi yanada yangi va yangi usullar, qarshi usullar hamda himoyalani shlarni egallab borishi bilan uning alohida xususiyatlari va odatlariga javob beradigan hamda uning tomonidan muvaffaqiyatli bajariladigan usullarning bir qismi keyinchalik takomillashtirish maqsadida rejaga kiritiladi.

Kurashchining har tomonlama texnik tayyorgarligi - turli sport turlarini rivojlantirishning zamonaviy darajasiga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. Mustahkam egallash uchun texnik harakatlarni tanlashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

-amaldagi musobaqa qoidalarida qaysi biri texnik harakat muvaffaqiyatli hisoblangan o'sha texnik harakatlarni egallash;

-texnikaning hamma turlari ichidan sportchining alohida xususiyatlariga eng yaxshi javob beradigan usullar, qarshi usullar va himoyalashlarning variantlarini egallash;

-asosiy raqobatchilarning mahorati xususiyatlarini hisobga olish va ular bilan kurashishda yaxshi natija beradigan texnik harakatlarni tanlash;

-avval o'rganilgan usullar va qarshi usullarni qo'llash imkoniyatini kengaytirish mumkin bo'lgan texnik harakatlarga ko'proq e'tibor qaratish;

- kurashchi zahirasida mavjud bo'lgan usullar bilan kombinatsiyalar hamda bog'lanishlarda qo'llash mumkin bo'lgan texnik harakatlarni o'rganish;

- harakat vazifasini eng oqilona hal etish xususiyatiga ega bo'lgan harakat texnikasiga o'rgatish lozim; bu kelgusida qayta o'rganishdan xolos qiladi;

- kerak bo'lmagan harakatlar va ortiqcha mushak zo'riqligini bartaraf etib, texnika asoslari hamda umumiy harakat maromini egallash;

- usullarga o'rgatish vaqt oraliq'ida jamlangan bo'lishi zarur, chunki trenirovka mashg'ulotlari orasidagi uzoq tanaffuslar uning ta'sirini pasaytiradi. Boshqa tomondan, bitta trenirovka darsi davomida usullarni juda tez-tez takrorlash maqsadga muvofiq emas, chunki yangi koordinatsiyalarni yaratish asab tizimini tez toliqtiradigan qiynchilikni engib o'tish bilan bog'liq;

- jismoniy shart-sharoitlar etarlicha bo'lmasligi oqibatida yuzaga keladigan texnik holatlarni oldini olish maqsadida harakatlarning dinamik tavsiflariga mos keladigan yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish lozim.

Kurashchining texnik mahoratini oshirish uchun harakatlarni bajarish paytida harakatlanishdagi xatolarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni paydo bo'lish sabablarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Bunday xatolarni o'z vaqtida bartaraf etish ko'p jihatdan texnik takomillashtirish jarayoni samaradorligiga sabab bo'ladi. Harakatlarga o'rgatishda yuzaga keladigan hamma harakatlanish xatolari beshta guruhga bo'linadi: harakatlanish etishmasligi sababli xatolar; o'qitishdagi kamchiliklar sababli xatolar; sharoitlarning g'ayritabiiyligi sababli xatolar, ruhiyatdagi xatolar hamda kutilmagan xatolar.

Shu bilan birga texnik takomillashtirish jarayonida yuzaga kelgan harakatlanishdagi xatolarni bartaraf etish uchun uslubiy qoidalarni ishlab chiqish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonun. 2015-yil 4-sentabr O'RBQ-394-son

2. O'zbek milliy kurashi Ibn Sino nomidagi nashriyoti 1990 y

3. Sambo kurashi nazariyasi va uslubiyoti "Tanaddun" Toshkent 2016 y

4. Sport kurash uslubiyoti F.A.Kerimov Toshkent-2005

5. Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari R.S.Salomov

## **ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА, МЕТОДЫ, УСЛОВИЯ ПОДГОТОВКИ ЛЕГКОАТЛЕТОВ**

**Жемуратов Б.С** - Нукусский филиал института переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту

**Аннотация:** В нашей статье рассказывается о том, подготовке легкоатлетов используются физические и идеомоторные упражнения, аутогенная тренировка, определенные условия внешней среды, средства восстановления и гигиенический режим. Посредством систематического выполнения физических упражнений легкоатлеты совершенствуются в технике, тактике, развивают физические и волевые качества.

**Ключевые слова:** упражнения, легкой атлетики, тренер, игра, условия, технике, тактике.

В подготовке легкоатлетов используются физические и идеомоторные упражнения, аутогенная тренировка, определенные условия внешней среды, средства восстановления и гигиенический режим. Посредством систематического выполнения физических упражнений легкоатлеты совершенствуются в технике, тактике, развивают физические и волевые качества.

Физические упражнения являются главным средством подготовки и делятся на три основные группы:

1-я группа. Упражнения в том виде легкой атлетики, в котором спортсмен специализируется, включая все элементы и варианты этого вида.

2-я группа. Общеразвивающие физические упражнения, которые подразделяются на две подгруппы:

а) упражнения из других видов спорта (гимнастика, легкая атлетика, тяжелая атлетика, спортивные игры и др.), применяемые для общего физического развития, но соответственно специфике своего вида легкой атлетики: для развития общей выносливости и укрепления здоровья – кроссы; для развития и укрепления мускулатуры – упражнения с отягощениями; для приобретения быстроты – спринтерский бег; для развития ловкости и улучшения координации движений – игра в баскетбол и упражнения на гимнастических снарядах.

б) общеразвивающие подготовительные упражнения с различными предметами: палками, скакалками, булавами, гантелями и др. – и без них; упражнения на снарядах и тренажерах, наклоны, повороты, размахивания, вращение, сгибание и разгибание конечностей, прыжки и др.

Общеразвивающие подготовительные упражнения предназначены для всестороннего физического развития в первую очередь новичков и малоподготовленных легкоатлетов; они используются и для исправления основных дефектов в телосложении.

3-я группа. Специальные упражнения обычно представляют собой элемент, часть или «связку» нескольких движений, взятых из данного вида легкой атлетики. Необходимо, чтобы по кинематической и динамической характеристикам движений, а также по психологической направленности специальные упражнения подходили бы возможно ближе к избранному виду легкой атлетики или его части.

Специальные упражнения выполняются со снарядами (легкоатлетические, набивные мячи, мешки с песком, гантели, гири, штанга, груз на блоках и др.), на снарядах (гимнастические барьеры, канат и др.) и без снарядов.

Специальные упражнения могут выполняться также на тренажерах и специальных устройствах, позволяющих проявить предельные усилия, сверхмаксимальную быстроту, наибольшую, амплитуду, создать мощные локальные воздействия. Могут использоваться конструкции, позволяющие эффективное совершенствование техники бега, прыжков и метаний. Избранный вид легкой атлетики и специальные упражнения выполняются также в усложненных условиях: в горной местности, в барокамере, при уреженном дыхании, на мягкой дорожке, на трудном профиле пути, при встречном ветре, дожде и в условиях «поля боя». Это необходимо для психологической подготовки легкоатлетов, воспитания у них волевых качеств и повышения уровня развития физических качеств. Облегченные условия: попутный ветер, тяговые и лидирующие устройства, снаряды уменьшенного веса и др. – помогают обучению технике и позволяют формировать более высокие уровни скоростно-силовых качеств, способности преодолевать «скоростные барьеры». В зависимости от внешних условий выполнение упражнений, их целенаправленность и воздействие на спортсмена могут изменяться.

Идеомоторные упражнения – мысленное исполнение движения или действия. Их эффект основан на двигательных и функциональных реакциях, автоматически возникающих у человека в момент представления о движении. Эти реакции хотя и очень слабые, но они в точности соответствуют тем, что возникают при практическом выполнении этого упражнения, его части, элемента, связки, могут способствовать овладению техникой и тактикой, настраивать на предстоящее фактическое выполнение, упрочивать навык, совершенствовать проявлению двигательных качеств. Очень важно, что в процессе идеомоторного упражнения может начинаться образование двигательного навыка.

Аутогенная тренировка – воздействие на психологическое состояние (для отдыха, снижения возбужденности, предстартовой настройки, преодоления рекордных рубежей) посредством самовнушения спортсмена или внушения тренера или психолога. Музыка и ритмолидеры. С их помощью можно делать занятия более эмоциональными, увеличивать объем тренировки, интенсивность. Музыка – хорошее средство для настройки перед стартом и для отдыха. Места занятий. В настоящее время повысились требования к местам занятий. Синтетические дорожки и места для прыжков и метаний, амортизационные подушки для приземления стали обязательными для легкоатлетических стадионов и манежей. Рекомендуется иметь несколько круговых дорожек из мягкого синтетического материала, опилок или песка, с травяным покровом; наклонную дорожку, которая дает возможность повысить объем и интенсивность упражнений, создать условия тренировки для спринтеров и прыгунов в длину, а также наклонную дорожку под углом 5–10 для тренировки в тройном прыжке. Очень важно иметь хорошее оборудование для проведения занятий по физической подготовке: гантели, набивные мячи, скакалки, мешки с песком, утяжеленные пояса, жилеты и манжеты, гири, штанги, гимнастические снаряды, мячи, эспандеры, боковые аппараты, универсальные и специальные тренажеры и др. На стадионе необходим городок для занятий по физической подготовке со снарядами, на которых можно выполнять упражнения в висе и упоре, тяжестями, различными предметами. Важную

роль играет тренировка в избранном виде легкой атлетики и выполнение специальных упражнений в условиях, идентичных соревновательным и более усложненным. Разнообразие внешних условий также влияет на тренировку. Проведение занятий на различных стадионах, в парках, лесу, на берегу реки повышает эмоциональность тренировки, помогает увеличить объем работы, предупреждает перетренировку. Горные условия. Важное значение имеет подготовка в условиях среднегорья (1500–3500 м над уровнем моря). Тренировка там в течение 20–30 дней способствует повышению жизнедеятельности организма спортсмена и его работоспособности. Эффективность тренировки в среднегорье проявляется после возвращения спортсменов в обычные условия. В первые 5 дней после спуска с гор результаты (особенно в спортивной ходьбе и беге на 400 м и более) могут значительно повышаться. Затем в период акклиматизации (6–14 дней) работоспособность, как правило, понижается, но в последующие 10–14 дней достигает наивысшего уровня. Горная тренировка перед кульминационными соревнованиями планируется с таким расчетом, чтобы можно было стартовать через 2 недели после спуска с гор. Разумеется, при этом следует учитывать индивидуальные особенности спортсмена, продолжительность пребывания в горах и интенсивность выполняемой там тренировки.

Методы тренировки. Для решения одной и той же задачи можно применять различные средства, но с использованием определенных методов. Выбор методов спортивной тренировки определяется задачами и условиями проведения занятий (местом, временем, погодой и др.).

Главным методом спортивной тренировки является метод упражнений, позволяющий развивать физические качества, совершенствовать технику и тактику. В зависимости от задач, решаемых в тренировке легкоатлетов, используются следующие варианты метода упражнения.

Равномерный метод – выполнение упражнения в равномерном темпе, например, пробегание определенной дистанции с одинаковой скоростью. Применяется при развитии физических качеств, в частности, выносливости.

Повторный метод – стереотипное повторение упражнения без четко определенных интервалов отдыха. Применяется для закрепления изучаемых действий, чувства скорости, совершенствования техники, развития физических качеств.

Переменный метод – непрерывное выполнение упражнения, но с изменением характера повторяющихся действий, например, чередование бега с различной скоростью. Используется для развития выносливости, быстроты, силы, тактических навыков, исправления ошибок в технике движений.

Интервальный метод – конкретные диапазоны усилий в повторном выполнении действий, при которых заранее планируются и строго регламентируются интервалы отдыха. Чаще всего применяется при развитии специальной выносливости.

Темповой метод – выполнение упражнения с заданным темпом движений, например, пробегание определенной дистанции с заданной скоростью. Используется в основном бегунами на средние и длинные дистанции для развития скоростной выносливости.

Круговой метод – поточное, последовательное выполнение специально подобранного комплекса физических упражнений. Он позволяет эффективно решать задачи сопряженного развития физических качеств и совершенствования техники движений. Применяется в тренировочном процессе во всех видах легкой атлетики.

Игровой метод – развитие двигательных качеств в процессе спортивных и подвижных игр. Широко применяется для повышения эмоциональности занятий, совершенствования координации движений, развития быстроты и выносливости.

Метод «до отказа» – непрерывное, относительно медленное выполнение упражнений с усилиями на уровне 50–70 % от максимального до тех пор, пока не начнет нарушаться правильность движений и наступит значительное утомление. Используется легкоатлетами при развитии силовых, скоростно-силовых и волевых качеств. Контрольный метод – выполнение избранного вида легкой атлетики или специальных упражнений с соревновательной интенсивностью, но с уменьшенной продолжительностью. Применяется с целью проверки тренированности спортсменов.

Соревновательный метод – выполнение упражнений избранного вида легкой атлетики со стремлением достичь наилучшего результата при соблюдении правил соревнований. Используется для повышения эмоциональности занятий, проверки уровня тренированности спортсменов, их волевой подготовленности, подведения итогов тренировочного процесса. Для повышения эффективности тренировки, помимо рационального применения перечисленных методов, можно использовать различные методические приемы, способствующие созданию правильного представления о выполняемом упражнении. Такими приемами являются: непосредственная помощь тренера по ходу движения, звуковые или световые сигналы в определенных фазах упражнения для достижения соответствующего ритма, использование ориентиров и разметок для уточнения фаз движений, применение облегченных и утяжеленных условий выполнения упражнений и т. д. Средства и методы тренировки легкоатлетов органически взаимосвязаны. Для достижения высоких спортивных результатов необходимо умело применять самые разнообразные средства, методы и методические приемы, позволяющие количественно и качественно изменять тренировочные нагрузки, повышать функциональные возможности организма спортсмена и на этой базе добиваться высоких спортивных результатов.

#### **Список использованных источников**

1. Методика тренировки в легкой атлетике : учебное пособие / Т. П. Юшкевич, В. Г. Ярошевич, В. В. Рудник [и др.]. — Минск : БГУФК, 2021. — 562 с.
2. Недосеков , Ю.В. Скоростно-силовая подготовка легкоатлетов в учебном спортивном отделении: учебно-методическое пособие / Ю. В. Недосеков. - Витебск : ВГАВМ, 2021. - 19 с.
3. Платонов, В. Н. Скоростные способности и методика их развития / В. Н. Платонов // Наука в олимп. спорте - 2015. - № 4. - С. 20-31.

## **СПОРТ МЕКТЕПТЕРИНДЕ ЖАС ФУТБОЛШЫЛАРДЫҢ ОҚЫҰ-ШЫНЫҒЫҰ ЖУМЫСЛАРЫН ЦИКЛЕРДЕ ӨТКЕРІҰ МЕТОДИКАСЫ**

**Кайпов Ниетбай** - педагогика илимлери кандидаты, доц. Дене мәденияты факультети, ҚМУ.

**Сейтбекова Зульфия** - дене маденияты факультети 2-курс студенти.

**Резюме.** Мақалада басланғыш таярлықтағы жас футболшылардың тренировка процессин бир жыллық циклда алып барыу методикасы хаққында сөз етилген.

**Таяныш сөзлер.** цикл, жүктеме, эксперимент, қадағалау, спорт, шынығыу, физикалық сапалар, техника, тактика.

Мәмлекетимиз тәрәпинен балалар хәм жас өспиримлер спортына үлкен итибар берилмекте. Өзбекстан республикасының «Дене тәрбия хәм спорт» ҳаққындағы нызамы, футбол хәм басқа да спорт түрлерин раўажландырыу ҳаққындағы президент пәрманларының қабыл етилиуи буған айқын мысал бола алады.[1]

Жетик спортшының басланғыш таярлық басқышындағы қәте кемшиликлери болажақ жарысларда кери тәсирин тийгизиуи мүмкин.

